**Kalit so'zlar:** rus tili chet tili sifatida, interfaol o'qitish usullari, 4K usuli, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarning motivatsiyasi, kommunikativ kompetentsiya

**Abstract.** This article is devoted to the study of modern interactive tools and methods in the process of teaching Russian as a foreign language (RSL) in schools in Uzbekistan. The article discusses various approaches and technologies, including the 4K method, used to improve the effectiveness of RSL teaching. The analysis of existing methods and tools is carried out, the results of their application in the educational process are presented. The advantages and disadvantages of each approach are discussed, as well as recommendations for their implementation in school practice.

**Keywords:** Russian as a foreign language, interactive teaching methods, 4K method, information and communication technologies, student motivation, communicative competence

Введение. Русский язык является одним из наиболее распространенных языков в мире и играет важную роль в социально-экономическом развитии

многих стран, в том числе Узбекистана. В связи с этим, обучение русскому языку как иностранному (РКИ) становится приоритетной задачей системы образования Узбекистана [1].

Традиционные методы обучения РКИ, основанные на грамматико-переводном и аудиолингвальном подходах, не всегда способны в полной мере удовлетворить потребности современных учащихся и обеспечить их необходимыми коммуникативными навыками [2]. Поэтому возникает необходимость в разработке и внедрении новых интерактивных средств и методов, способных повысить эффективность и качество обучения РКИ.

*Целью данной статьи* является анализ современных интерактивных средств и методов обучения РКИ в школах Узбекистана, выявление их преимуществ и недостатков, а также разработка рекомендаций по их применению в учебном процессе.

### ОБЗОР МЕТОДОВ И ЛИТЕРАТУРЫ

Проблема поиска эффективных методов и средств обучения РКИ привлекает внимание многих исследователей и педагогов. В научной литературе представлен широкий спектр подходов и технологий, направленных на повышение качества преподавания русского языка как иностранного.

Одним из наиболее перспективных направлений является применение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в обучении РКИ. Использование компьютерных программ, мультимедийных ресурсов, онлайн-платформ и мобильных приложений позволяет создать интерактивную языковую среду, способствующую развитию коммуникативных навыков учащихся [3]. ИКТ также предоставляют возможность индивидуализации обучения, учета личных потребностей и интересов каждого ученика [4].

Другим эффективным подходом является метод проектов, который предполагает самостоятельную исследовательскую и творческую деятельность учащихся по решению практических задач с использованием изучаемого языка [5]. Метод проектов способствует развитию критического мышления, навыков работы в команде, а также повышению мотивации к изучению РКИ [6].

Особого внимания заслуживает метод 4К, который основан на интеграции четырех ключевых компетенций: коммуникации, креативности, критического мышления и командной работы [7]. Данный метод предполагает активное вовлечение учащихся в процесс обучения через групповые дискуссии, ролевые игры, решение проблемных ситуаций и другие интерактивные формы работы [8].

Несмотря на наличие различных методов и средств обучения РКИ, их эффективность во многом зависит от конкретных условий и особенностей учебного процесса. Поэтому необходимо проведение дальнейших исследований, направленных на выявление оптимальных подходов к преподаванию русского языка как иностранного в школах Узбекистана.

## РЕЗУЛЬТАТЫ

Для изучения эффективности применения современных интерактивных средств и методов в обучении РКИ было проведено исследование на базе нескольких школ Узбекистана. В эксперименте приняли участие 120 учащихся 8-9 классов, которые были разделены на экспериментальную и контрольную группы.

В экспериментальной группе обучение РКИ проводилось с использованием ИКТ, метода проектов и метода 4К. Учащиеся работали с интерактивными онлайн-ресурсами, участвовали в групповых проектах, дискуссиях и ролевых играх на русском языке. В контрольной группе применялись традиционные методы обучения, основанные на грамматико-переводном и аудиолингвальном подходах.

По результатам эксперимента было выявлено, что учащиеся экспериментальной группы продемонстрировали более высокий уровень владения русским языком по сравнению с контрольной группой. Средний балл по итоговому тестированию в экспериментальной группе составил 85%, в то время как в контрольной группе - 72% ( $p < 0.05$ ).

Кроме того, учащиеся экспериментальной группы проявили большую заинтересованность и мотивацию к изучению РКИ. По данным анкетирования, 78% учащихся отметили, что интерактивные методы обучения сделали уроки более увлекательными и эффективными, а 85% выразили желание продолжить изучение русского языка в будущем.

## АНАЛИЗ И ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты свидетельствуют о высокой эффективности применения современных интерактивных средств и методов в обучении РКИ в школах Узбекистана. Использование ИКТ, метода проектов и метода 4К позволяет создать благоприятные условия для развития коммуникативных навыков учащихся, повышения их мотивации и вовлеченности в учебный процесс.

ИКТ предоставляют учащимся доступ к аутентичным материалам на русском языке, позволяют отрабатывать грамматические и лексические навыки в интерактивной форме, а также получать своевременную обратную связь от учителя [9]. Метод проектов способствует развитию самостоятельности, креативности и навыков работы в команде, что является важными компетенциями для успешной коммуникации на иностранном языке [10].

Особо следует отметить эффективность метода 4К, который интегрирует развитие ключевых компетенций 21 века - коммуникации, креативности, критического мышления и командной работы. Данный метод позволяет учащимся активно применять полученные знания в реальных коммуникативных ситуациях, учиться выражать свои мысли и идеи на русском языке, аргументировать свою позицию и находить решения проблем в процессе групповой работы [11].

Анализ результатов также показал, что применение интерактивных методов обучения способствует не только повышению уровня владения русским языком, но и развитию метапредметных навыков учащихся. В процессе групповой работы, дискуссий и проектной деятельности учащиеся учатся эффективно взаимодействовать друг с другом, распределять роли и обязанности, планировать свою деятельность и нести ответственность за результат [13]. Эти навыки являются ключевыми для успешной социализации и профессиональной реализации в современном мире.

Кроме того, применение интерактивных методов обучения позволяет создать более благоприятный психологический климат на уроках РКИ. Учащиеся чувствуют себя более раскрепощенными, не боятся допускать ошибки и активно участвуют в коммуникации на изучаемом языке [14]. Это способствует снижению языкового барьера и повышению уверенности учащихся в своих силах.

Вместе с тем, внедрение современных интерактивных методов обучения РКИ требует определенных усилий со стороны учителей и администрации школ. Необходимо обеспечить техническую оснащенность классов, доступ к качественным онлайн-ресурсам, а также провести соответствующую подготовку педагогических кадров [12]. Учителя должны владеть навыками работы с ИКТ, уметь организовывать проектную деятельность и групповую работу учащихся, а также создавать благоприятную атмосферу для коммуникации на уроках РКИ.

Также важно отметить, что интерактивные методы обучения не должны полностью заменять традиционные подходы, а гармонично дополнять их [15]. Грамматико-переводной и аудиолингвальный методы по-прежнему играют важную роль в формировании языковых навыков учащихся, особенно на начальном этапе обучения. Задача учителя - найти оптимальное сочетание различных методов и средств обучения в соответствии с целями и условиями конкретной образовательной ситуации.

В целом, результаты исследования убедительно доказывают перспективность применения современных интерактивных средств и методов в обучении РКИ в школах Узбекистана. Их внедрение в учебный процесс способствует повышению эффективности обучения, развитию коммуникативных и метапредметных навыков учащихся, а также созданию благоприятного психологического климата на уроках.

#### ВЫВОДЫ

Проведенное исследование показало, что применение современных интерактивных средств и методов, таких как ИКТ, метод проектов и метод 4К, способствует повышению эффективности обучения РКИ в школах Узбекистана. Данные подходы позволяют создать благоприятную среду для развития коммуникативных навыков учащихся, повысить их мотивацию и вовлеченность в учебный процесс.

Для успешного внедрения интерактивных методов обучения РКИ необходимо обеспечить соответствующую материально-техническую базу,

доступ к качественным онлайн-ресурсам и подготовку педагогических кадров. Кроме того, важно учитывать индивидуальные особенности и потребности учащихся, адаптировать учебные материалы и задания в соответствии с их уровнем владения языком и интересами.

Дальнейшие исследования могут быть направлены на разработку конкретных методических рекомендаций по применению интерактивных средств и методов в обучении РКИ, а также на изучение их долгосрочного влияния на академические результаты и мотивацию учащихся.

#### Список литературы

1. Абдуллаева, Ш.А. (2019). Роль русского языка в системе образования Узбекистана. Молодой ученый, 5(243), 309-311.
2. Азимов, Э.Г., & Щукин, А.Н. (2018). Современный словарь методических терминов и понятий. Теория и практика обучения языкам. Москва: Русский язык. Курсы.
3. Бовтенко, М.А. (2019). Информационно-коммуникационные технологии в обучении русскому языку как иностранному: состояние и перспективы. Русский язык за рубежом, 5(276), 4-11.
4. Гарцов, А.Д. (2018). Электронные средства обучения русскому языку как иностранному: теория и практика разработки. Москва: МГПУ.
5. Капитонова, Т.И., & Московкин, Л.В. (2019). Методика обучения русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки. Санкт-Петербург: Златоуст.
6. Крючкова, Л.С., & Мощинская, Н.В. (2018). Практическая методика обучения русскому языку как иностранному: учебное пособие. Москва: Флинта.
7. Ларионова, М.В., & Гарабажий, В.А. (2020). Метод 4К в обучении русскому языку как иностранному. Русский язык за рубежом, 3(280), 15-23.
8. Московкин, Л.В., & Щукин, А.Н. (2020). Хрестоматия по методике преподавания русского языка как иностранного. Москва: Русский язык. Курсы.
9. Руденко-Моргун, О.И. (2019). Компьютерные технологии в обучении русскому языку как иностранному. Москва: Русский язык. Курсы.
10. Хавронина, С.А., & Балыхина, Т.М. (2018). Инновационный учебно-методический комплекс "Русский язык как иностранный". Москва: РУДН.
11. Шамов, А.Н. (2020). Методика обучения иностранным языкам: практикум. Ростов-на-Дону: Феникс.
12. Щукин, А.Н. (2018). Методика преподавания русского языка как иностранного: учебное пособие для вузов. Москва: Высшая школа.
13. Полат, Е.С. (2019). Метод проектов на уроках иностранного языка. Иностранные языки в школе, 3, 31-36.
14. Пассов, Е.И. (2018). Урок иностранного языка. Ростов-на-Дону: Феникс.

**МЕХНАТ ҚОНУНЧИЛИГИДА КАФОЛАТ:  
ИШ ЖАРАЁНИДА ХОДИМ СОҒЛИҒИГА ЕТКАЗИЛГАН  
ЗАРАРЛАРНИ ҚОПЛАШ**



*У.Назирова*  
*ФИБ Хўжаобод туманлараро*  
*судининг судьяси*

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 42-моддасида, Ҳар ким муносиб меҳнат қилиш, касб ва фаолият турини эркин танлаш, хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб берадиган қулай меҳнат шароитларида ишлаш, меҳнати учун ҳеч қандай камситишларсиз ҳамда меҳнатга ҳақ тўлашнинг белгиланган энг кам миқдоридан кам бўлмаган тарзда адолатли ҳақ олиш, шунингдек ишсизликдан қонунда белгиланган тартибда ҳимояланиш ҳуқуқига эга.

Дарҳақиқат, юртимизда инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, қулай меҳнат шароитларида ишлаш, муносиб иш ҳақи билан таъминлаш, қариганда, ногиронлиги бўлганда ва бошқа турдаги ижтимоий ёрдамнинг миқдорлари истеъмол харажатларидан оз бўлиши мумкин эмаслигини таъминлаш давлатимизнинг олий мақсади эканлигини яна бор бора кўриш мумкин.

Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг биргина 319-моддасида, Иш берувчи қуйидаги ҳолларда ходимга етказилган зиённинг ўрнини қоплаши шартлиги қатъий белгиланган, ходим меҳнат қилиш имкониятидан ғайриқонуний равишда маҳрум қилинганда; ходимнинг ҳаёти ёки соғлиғига зиён етказилганда; ходимга иш ҳақи тўлаш ва унга тўланиши лозим бўлган бошқа тўловлар кечиктирилганда; ходимнинг мол-мулкига зиён етказилганда. Агар иш берувчининг қонунга ҳилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) билан ходимга жисмоний ёки маънавий азоб етказилган бўлса, ходимга етказилган маънавий зиён компенсация қилиниши лозим.

Ходим меҳнат қилиш имкониятидан иш берувчини ғайриқонуний равишда маҳрум қилиши деганда, яъни, қонунга кўра, ишга қабул қилишни ғайриқонуний рад этиш, ғайриқонуний бошқа ишга ўтказиш, ғайриқонуний равишда ишдан четлаштириш, меҳнат шартномасини ғайриқонуний равишда бекор қилиш, ходимга тегишли меҳнат дафтарчаси ёхуд электрон меҳнат дафтарчаси кўчирмасини ўз вақтида юбормаслик, суднинг ишга тиклаш ҳақидаги қарорини ўз вақтида бажармаслик, ходимнинг шаъни, кадр-қимматига ёки ишчанглик обрўсига путур етказадиган маълумотларни ҳар қандай усулда тарқатиш ва бошқа ҳарат ёки ҳаракатсизликларни тушуниш мумкин.

Ходимнинг соғлиғига етказилган зиённинг ўрнини иш берувчи томонидан қоплаш деганда эса, ходимга бир маталик нафақа тўлаш, ходимга йўқотилган иш ҳақи учун етказилган зиённинг ўрнини қоплаш тарзида амалга

ошириладиган ҳао ойлик тўловлар, ходимнинг кўшимча харажатларини компенсация қилиш билан боғлиқ харажатларни амалга ошириши назарда тутилган бўлиб, бундан ташқари иш берувчи ходимнинг меҳнатда майиб бўлганлик ёки касб касаллиги туфайли келиб чиққан кўшимча харажатларни ўрнини ҳам қоплаши шарт.

Шу билан бирга, Боқувчи бўлган ходим вафот этган тақдирда эса иш берувчи, марҳумнинг қарамоғида бўлган меҳнатга қобилиятсиз шахсларига, шунингдек, ўн саккиз ёшга тўлмаган шахсларга ёки марҳум вафотидан сўнг туғилган фарзандларига етказилган зиёнларни ҳам қоплаши лозим.

Меҳнат кодексининг 328-моддасида, Боқувчи вафот этганлиги муносабати билан етказилган зиённинг ўрни, вояга етмаган шахсларга - ўн саккиз ёшга тўлгунига қадар; ўн саккиз ёшдан ошган ўқувчиларга - кундузги таълимни тугатгунига, лекин кўпи билан йигирма уч ёшга тўлгунига қадар; эллик беш ёшдан ошган аёлларга ва олтмиш ёшдан ошган эркакларга - умрбод; ногиронлиги бўлган шахсларга - ногиронлик муддатига; марҳумнинг қарамоғида бўлган болаларини, набираларини, ака-укалари ва опасингилларини парваришlash билан банд бўлган ота-онасидан бирига, эрига (хотинига) ёки бошқа оила аъзосига - қарамоғидаги шахслар ўн тўрт ёшга тўлгунига қадар қопланади.

Иш жараёнида ходим соғлиғига етказилган зарарни қоплаш тўғрисидаги ариза иш берувчига жабрланган ходим томонидан, у вафот этган тақдирда эса зиённинг ўрни қопланишига доир ҳуқуққа эга бўлган манфаатдор шахслар томонидан берилади. Иш берувчи ариза келиб тушган кундан эътиборан ўн кун ичида аризани кўриб чиқиши ва тегишли қарор қабул қилиши шарт. Иш берувчининг ходимга ҳаётига ва соғлиғига етказилган зиённинг ўрнини қоплаш тўғрисидаги буйруғининг кўчирма нусхаси ёки иш берувчининг асослантирилган ёзма рад жавоби ходимга ёки зиённинг ўрни қопланишига доир ҳуқуққа эга бўлган манфаатдор шахсларга ушбу буйруқ қабул қилинган кундан эътиборан уч кунлик муддатда топширилади. Ходим ёки зиённинг ўрни қопланишига доир ҳуқуққа эга бўлган манфаатдор шахслар иш берувчининг қароридан рози бўлмаган тақдирда, улар ушбу низони ҳал қилиш учун тегишли тартибда судга мурожаат қилишга ҳақли.

## ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ (Тошкент вилояти мисолида)

*А.А.Абдурахимов*

*Республика Маънавият ва маърифат маркази  
ҳузуридаги “Маърифат” тарғиботчилар  
жамияти Давлат, жамоат ташкилотлари  
билан ишлаш ва ижтимоий лойиҳалар бўлими  
бошлиғи*

**Аннотация.** Мақолада муаллиф томонидан Ўзбекистоннинг туристик салоҳияти, мустақиллик йилларида соҳани ривожлантириш учун қабул қилинган ҳуқуқий ҳужжатлар таҳлили масаласига эътибор қаратилган. Мақолада Тошкент вилоятининг туристик имкониятлари ва ҳудудлардаги туризмни ривожлантириш бўйича амалга оширалаётган ислохотлар ҳақида фикр юритилган.

**Аннотация.** В центре внимания автора анализ туристического потенциала Узбекистана, правовых документов, принятых для развития отрасли в годы независимости. В статье рассматриваются туристические возможности Ташкентской области и реформы, которые реализуются для развития туризма в регионах.

**Abstract.** The author focuses on the analysis of the tourism potential of Uzbekistan, the legal documents adopted for the development of the industry in the years of independence. The article discusses the touristic opportunities of the Tashkent region and the reforms that are being implemented to develop tourism in the regions.

**Калит сўзлар:** туризм, дастур, Қарор, Концепция, экотурзм, агротуризм, зиёрат туризми, гастрономик туризм, табиат, хизмат кўрсатиш, ички туризм

**Ключевые слова:** туризм, программа, Решение, Концепция, экотуризм, агротуризм, паломнический туризм, гастрономический туризм, природа, сервис, внутренний туризм

**Key words:** tourism, program, Decision, Concept, ecotourism, agrotourism, pilgrimage tourism, gastronomic tourism, nature, service, domestic tourism

Ривожланган давлатлар иқтисодиётининг асосий манбаси ҳисобланган туризм соҳаси бугунги кунда жадал ривожланиб бормоқда. Ҳозирги кунда аксарият давлатлар томонидан мавжуд имкониятлардан фойдаланган ҳолда туризмни ривожлантириш асосий мақсад қилиб олинган.

Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожлантириш, бу соҳаниннг имкониятларидан кенг фойдаланиш бугунги кундаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Республикада туризм соҳасини ривожлантирилиши мустақилликнинг илк йилларидан бошлаб давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири этиб белгиланди. Соҳани ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбектуризм” Миллий компаниясини

ташқил этиш тўғрисида” 1992 йил 27 июлдаги ПФ-447-сонли фармони илк кадамлардан бири бўлиб ҳисобланди<sup>1</sup>. Шу билан бир қаторда 1999 йил 15 апрелдаги ПФ-2286-сон “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида” Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Буюк ипак йўлини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикаси иштирокини авж олдириш ва республикада халқаро уризмни ривожлантириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги 1995 йил 2 июндаги ПФ-1162-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан “Ўзбекистон Республикасида халқаро туризмнинг замонавий инфраструктурасини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1995 йил 3 июндаги 210- сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Сайёҳлик ташкилотлари фаолиятини ташқил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 346-сон Қарорлари қабул қилинди. Қабул қилинган мазкур фармон ва қарорлар республика туризм соҳасини бирламчи даврда йўлга қўйиш, туристик салоҳиятни янада ривожлантиришга, мавжуд ҳудудлардаги сайёҳларни жалб этиш имкониятини кенгайтириш, сайёҳлар учун шарт-шароитларни яхшилаш, хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва бу соҳага кадрани тайёрлаш масалаларини ўз ичига олган эди.

Мазкур соҳани ривожлантиришда кейинги йилларда ҳам давлат томонидан қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳам қабул қилинди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони асосида, туризм соҳасидаги давлат сиёсатининг мақсадлари ва устувор вазифаларидан келиб чиқиб, ўрта муддатли истиқболда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепциясини, шунингдек 2017-2021 йилларда Концепцияни амалга оширишга доир аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш белгилаб олинган<sup>1</sup>. Шу билан бирга, 2017 йил 12 июлдаги “Туризм соҳасини ривожлантиришда маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг масъулиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан Хоразм, Бухоро, Самарқанд ва Тошкент вилоятлари ҳокимларининг туризмни ривожлантириш масалалари бўйича ўринбосарлари лавозимлари жорий қилинди<sup>2</sup>.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори соҳа ривожиди яна бир

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 375-модда. (12.12.2016 йилда ҳужжат ўз кучини йўқотган) <https://lex.uz/ru/docs/223878>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4861-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016, 49-сон, 558-модда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 июлдаги “Туризм соҳасини ривожлантиришда маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг масъулиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3129-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 28-сон (788).

кадам бўлди<sup>3</sup>. Қарорга кўра, 2018-2019 йилларда соҳа олдида турган муҳим масалалар ечимига бағишланган алоҳида дастур тасдиқланди ва унинг тўлиқ ижросини таъминлаш ҳамда соҳада олиб борилаётган ишларни идоралараро мувофиқлаштириш мақсадида Туризмни ривожлантириш бўйича мувофиқлаштирувчи кенгаш тузилди. Шунингдек, дастур доирасида туризмнинг тиббий, рекреация, агро ва экотуризм йўналишлари бўйича алоҳида дастурлар қабул қилиниши ҳам белгилаб қўйилди.

Соҳадаги ишларни янада такомиллаштириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралда “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони<sup>4</sup>, 2018 йил 6 февралдаги “Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3509-сон<sup>5</sup>, 2018 йил 6 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3510-сон<sup>6</sup>, 2018 йил 7 февралдаги “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3514-сон<sup>7</sup>, 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш” ПФ-5611-сон Фармони<sup>8</sup>, 2019 йил 13 август куни “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари<sup>9</sup> қабул қилиниши, 2019 йил 5 январдаги “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш” ПФ-5611-сон Фармони асосида 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилди<sup>10</sup>.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3217-сон қарори. 2017 йил 16 август. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 33-сон, 845-модда

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 97-модда.

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги “Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3509-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 98-модда.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3510-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 99-модда.

<sup>7</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3514-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 100-модда.

<sup>8</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш тўғрисида” ги ПФ-5611-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 6 январь. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2019 йил 14 январь, 1-2-сон, 5-модда.

<sup>9</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 15 август 2019 йил ПФ-5781-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5781/3567-сон.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш” ПФ-5611-сон Фармонига 1-илова. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2019 йил 6 январь. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2019 йил 14 январь, 1-2-сон, 5-модда.

Бундан кўриниб турибдики, сўнгги йилларда соҳани ривожланишида республика томонидан қабул қилинган ҳужжатлар асосида амалга оширалаётган ислоҳотлар кенг кўламда ривожланиб бормоқда.

Бу албатта республика миқёсида туризм соҳасини ривожланишига қаратилган чора тадбирларни амаллаш оширилиши ҳисобланади.

Маълумки, Ўзбекистонда сайёҳларни жалб этишда соҳанинг ҳудудлар кесимида ўзига ҳос хусусиятлари ҳам инобатга олинди. Биргина Тошкент вилоятида туризмни ривожлантириш, вилоятнинг кенг имкониятларидан фойдаланиш мақсадида бир қатор амалий ишлар йўлга қўйилди. Маълумки республикада туризм оҳасида Тошкент вилоятининг ўзига ҳос имкониятлари мавжуд бўлиб мазкур ҳудудни комплекс ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Тошкент вилояти ҳокимлиги ҳузуридаги туризмни ривожлантириш департаменти фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2017 йил 19 октябрдаги 852-сонли Қарори<sup>11</sup> қабул қилинди. Шунингдек, “2019-2021 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини жадал ривожлантириш тўғрисида”ги қарори<sup>12</sup> асосида вилоятнинг Бўстонлиқ, Оҳангарон, Паркент, Бўка, Чиноз, Зангиота туманлари ва Ангрэн шаҳрида зарур инфратузилмани шакллантириш орқали улар ўртасида ўзаро боғлиқликни таъминлаш асосида туристларнинг узлуксиз саёҳатлари учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида ушбу ҳудудларни “Олтин ҳалқа” туризм концепцияси асосида ривожлантириш асосий мақсад қилиб белгиланди<sup>13</sup>.

“Олтин ҳалқа” туризм концепцияси амалга ошириш натижасида туристларга қулай шарт-шароитлар яратиш, хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш, тақлиф этиладиган туризм маҳсулотлари турларини кенгайтириш, туризм соҳасида аҳоли бандлигини ошириш ва даромадларини кўпайтиришга қаратилганлиги аҳамиятга моликдир.

Мазкур концепцияга асосан Тошкент вилояти ҳудудларининг туризм соҳасидаги имкониятларига қараб ривожлантирилиши кўйидаги тартибда амалга оширилиши белгилаб берилди. Бунда;

Бўстонлиқ тумани — “Чорвоқ” эркин туристик зонаси, Угам-Чотқол миллий боғи, “Чорвоқ” сув омборига эга, шунингдек, туризм йўналишларининг барча турларини ривожлантириш имконияти мавжуд;

Паркент тумани — тоғолди ҳудуди ҳисобланади, табиати гўзал, зиёратгоҳлари, агротуризм масканлари, мазали овқатланиш шохобчалари мавжуд;

Зангиота тумани — тарихий ҳудуд ҳисобланади, зиёрат туризми объекти бўлган “Зангиота” мажмуаси, ҳунармандчилик марказлари, савдо мажмуаларига эга;

<sup>11</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.10.2017 й., 09/17/852/0147-сон; 01.06.2018 й., 09/18/398/1288-сон

<sup>12</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.01.2020 й., 09/20/1053/0011-сон

<sup>13</sup> <https://kun.uz/39917147>

Оҳангарон тумани — тарихий манзилгоҳлар, маданий мерос объектларига бой, саноат туризми йўналиши бўйича туризм намоиши объектларига эга;

Бўка тумани – гастронимик туризм йўналишида ўзига ҳос туризм намоиши объектлари мавжуд;

Чиноз тумани — Тошкент ва воҳани боғловчи асосий магистрал йўл бўйида жойлашган, агротуризм, гастронимик туризм ва туризмнинг бошқа йўналишларини ривожлантириш имкониятларига эга;

Ангрен шаҳри — саноат шаҳри ҳисобланади, Янгиобод ва Лашкарак худудларининг табиати гўзал, туристларга хизмат кўрсатувчи йўлбўйи овқатланиш шохобчаларига эга.

Вилоятнинг туристик имкониятларини яна эътиборли жиҳати шундаки, вилоятда жойлашган “Чотқол” давлат биосфера қўриқхонаси, Угом-Чотқол Давлат миллий боғи, шунингдек, тоғ худудларидаги осори атиқалар, тарихий обидалар, қоятош суръатлари, тош ҳайкаллар ҳамда ҳос тасвирий санъат намуналари бўлган қоятош битиклари вилоятда туризмнинг шу соҳасини янада ривожлантириш борасида ҳам ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Тошкент вилоятида туризмни ривожлантиришда ушбу худудларга келаётган ички ва хорижий сайёҳларнинг туристик объект сифатида табиат кўйнида унга зарар етказмаган ҳолда мароқли ҳордиқ чиқариш, “Чотқол” давлат биосфера қўриқхонаси, Угом-Чотқол Давлат миллий боғи, тоғли худудлардаги бетакрор гўзаллигидан баҳра олиши, набодот ва ҳайвонот оламининг нодир намуналари ҳақида маълумот учун қулай шароит яратилган<sup>14</sup>.

Хулоса ўрнида таъкидлаш лозимки, мустақиллик йилларида олиб борилган соҳани ривожлантиришга қаратилган кенг қўламли ислохотлар натижасида республика туризм салоҳияти йилдан йилга ошиб бормоқда. Айниқса бу борада Самарқанд, Бухоро, Хоразм вилоятлари қаторида Тошкент вилоятида ҳам ички ва ташқи туризм соҳалари кенг ривожланди. Бунда экологик туризм, зиёрат туризми, гастронимик туризм ва бошқа кўплаб соҳаларда имконият ва шароитлар яратилди. Бунинг натижасида аҳоли даромадларини ошиши, худудларни инфратузилмаси тубдан яхшиланди.

Бугунги кунда Тошкент вилояти имкониятларидан янада кенгрок фойдаланиш, туристлар оқимини янада ошириш ва туризмнинг бошқа соҳаларини ҳам кенг ривожлантириш асосий вазифалардан бири ҳисобланади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар руйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 375-модда. (12.12.2016 йилда ҳужжат ўз кучини йўқотган) <https://lex.uz/ru/docs/223878>.

<sup>14</sup> А.Муминов. “Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари” (1991-2020 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даража олиш учун дисс. – Тошкент, 2021. Б– 117.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-4861-сон Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016, 49-сон, 558-модда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 июлдаги “Туризм соҳасини ривожлантиришда маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг масъулиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3129-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 28-сон (788).
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3217-сон қарори. 2017 йил 16 август. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 33-сон, 845-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича кўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 97-модда.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 6 февралдаги “Кириш туризмни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3509-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 98-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат кўмитасининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3510-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 99-модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги “Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3514-сон қарори. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2018 йил 12 февраль, 6-сон, 100-модда.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш тўғрисида” ги ПФ-5611-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 2019 йил 6 январь. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2019 йил 14 январь, 1-2-сон, 5-модда.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 15 август 2019 йил ПФ-5781-сон Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5781/3567-сон.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш” ПФ-5611-сон Фармонига 1-илова. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2019 йил 6 январь.

---

“Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2019 йил 14 январь, 1-2-сон, 5-модда.

11. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.10.2017 й., 09/17/852/0147-сон; 01.06.2018 й., 09/18/398/1288-сон.

12. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 01.01.2020 й., 09/20/1053/0011-сон.

13. <https://kun.uz/39917147>.

14. А. Муминов. “Ўзбекистонда экологик туризмнинг ривожланиш жараёнлари” (1991-2020 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даража олиш учун дисс. – Тошкент, 2021. Б– 117.

---

O'ZBEK VA XITOIY ADABIYOTLARI RIVOJIDA ADABIY  
ALOQALARNING O'RNI

*Dildora Umarova*

*TDSHU 2-kurs magistranti,*

*Toshkent, O'zbekiston,*

*Tel: +998946999628;*

*E-mail: [dildoraumarova828@gmail.com](mailto:dildoraumarova828@gmail.com)*

**Annotsiya.** Ushbu maqolada Sharq adabiyoti xususan o'zbek va xitoy xalqlarining ma'naviy boyliklari, adabiyoti tarixi, ijod namunalari yoritilib berilgan. O'zbekistonda xitoy adabiyotining o'rganilish tarixi va rivojlanishi borasida tahliliy ma'lumotlar beriladi. Xitoy adabiyotiga doir ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi haqida fikr va mulohazalar bayon etiladi. Bu sohaga doir darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy risolalar va ilmiy maqolalar nashri bilan bog'liq ma'lumotlar, Shu bilan bir qatorda har bir sharq adabiyotining o'zbek adabiyoti bilan bog'liqligi, o'xshashligi, farqlari va o'ziga xos jihatlari namoyon etiladi.

**Абстрактный.** В реферативных статьях освещены восточные литературы, духовные сокровища узбекского и китайского народов, история литературы, примеры творчества. Даны аналитические сведения по истории и развитию изучения китайской литературы в Узбекистане. Выражение мыслей и мнений по поводу проведения научных исследований по китайской литературе. Сведения, касающиеся издания учебников, учебных пособий, монографий, научных брошюр и научных статей в этой области, а также взаимосвязи, сходства и различия каждой восточной литературы с узбекской литературой. и выразить индивидуальность.

**Annotation.** In this article, Eastern literature, especially the spiritual wealth of the Uzbek and Chinese peoples, the history of their literature, and examples of creativity are highlighted. Analytical information on the history and development of the study of Chinese literature in Uzbekistan is given. Opinions and comments on the conduct of scientific research on Chinese literature are presented. Information related to the publication of textbooks, study guides, monographs, scientific pamphlets and scientific articles in this field, as well as the relationship, similarities, and differences of each oriental literature with Uzbek literature. and shows its own characteristics.

**Tayanch so'zlar:** Konfutsiychilik, xitoy adabiyoti, adabiy aloqalar, janrlar, davrlashtirish, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot.

**Ключевые слова:** конфуцианство, китайская литература, литературные связи, жанры, периодизация, классическая литература, современная литература.

**Key words:** Confucianism, Chinese literature, literary relations, genres, periodization, classical literature, modern literature.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi hozirgi kunda mustaqil davlat sifatida jahon iqtisodiy-madaniy hamjamiyatiga ildam qadamlar bilan kirib borayotir. Davlatimiz birinchi rahbari I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda"<sup>15</sup>. Ana shunday mas'uliyatli bir sharoitda turli jabhalarda mamlakatlararo munosabatlarning o'rnatilishida xorijiy tillarni o'rganish dolzarb masalaga aylandi. Adabiyot beqiyos ma'naviy merosdir. Uni o'rganish anglash, mag'zini chaqib, hayotiy xulosalar chiqarish, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lsa, uning tili, ijodkorning o'z ona tilidan qay darajada foydalanish mahoratini tahlil qilish ham ma'naviy yuksalish uchun muhim omil hisoblanadi. Chunki asar tilini o'rganish jarayonida bevosita til tarixiga murojaat qilinadi, so'z ma'nolari tahlil qilinadi, asar tiliga mansub bo'lgan maqol va iboralar, hikmatli so'zlar bilan ham tanishib chiqiladi. Har bir asarning badiiy xususiyatlarini o'rganish, uning g'oyaviy mazmunini yoritish bevosita asar tili bilan bog'lanadi. Zero, ustoz Ozod Sharafiddinov "Adabiyot tildan boshlanadi" deganlarida ming bora haq edilar.

ASOSIY QISM. Hozirgi kunda har bir rivojlangan davlat o'zining boshqa sohalari qatorida adabiyotning rivojlanishiga, yangi-yangi asarlar bilan boyitishga katta ahamiyat beradi. "Biz tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirishni xavfsizlik va barqarorlikning kafolati deb bilamiz"<sup>16</sup> deya ta'kidlagan birinchi prezidentimiz I.A. Karimov. Yurtimiz mustaqilligidan so'ng mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning batamom yangi davri boshlandi. Ta'lim sohasidagi o'zaro aloqalarimizni kengaytirish ustuvor vazifaga aylandi. Xitoy tili va adabiyotini o'qishni hohlovchilar yurtimizda tobora ko'payib borayotgani ham buning isbotidir.

Xitoy adabiyoti juda qiziqarli va ko'p asrlik tarixga ega. Uning ildizlari eramizdan avvalgi bir necha asrlarga borib taqaladi. Undagi janrlarning xilmaxilligi dunyo adabiyotshunoslarni doimo o'ziga jalb qilib kelgan. O'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek adabiyotga ta'rif berib shunday degan edilar: "Adabiyot-fikr ommasi, qalb hislari bilan doim sayqallanadigan, to'xtashni bilmaydigan, borgan sari hamisha nurlanishi, chaqnashi oshib boradigan bir soha..."<sup>17</sup>

O'tgan asrning 1949-yillaridan e'tiboran xitoy xalqi o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi. Va millat holatining estetik ifodasi o'laroq zamonaviy xitoy adabiyoti deb atalmish badiiy hodisa yuzaga keldi. Zamonaviy xitoy adabiyoti "yangi davr adabiyoti" deb nomlanib, bu adabiyot 1979-yildan o'z sanasini boshlagan. Yangi davr adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Zamonaviy xitoy adabiyoti bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan

<sup>15</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: "Ўзбекистон", 1997.– Б. 296.

<sup>16</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: "Ўзбекистон", 1997.– Б. 297.

<sup>17</sup> Kh-davron.uz/oybek- adbiyot-togrisida.html

badiiy-estetik hodisadir. Xitoy adabiyotining bu davri tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Yangi davr adabiyoti tafakkur oyinlari o'zgacha ijodkorlarning estetik qarashlari natijasida dunyoga kelgan hodisa o'laroq bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dunyo xalqlari adabiyoti, jumladan sharq adabiyoti bu ta'rifga loyiq. Adabiyot bir xalqni dunyoga tanitadigan va kezi kelsa uni mashhur qiladigan ulkan va qudratli kuchga ega. Badiiy adabiyot insoniyat ma'naviyatining asl sarchashmasi, bashariyatning ruhiy asoslaridan biri, insonning qalb xarorati in'ikosi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning ilmiy o'rganilishi inson yuragida, uning ko'ngil ko'zgusida aks etgan o'ziga xos takrorlanmas, falsafiy, irfoniy, axloqiy-ta'limiy va ma'naviy ruhining shakllanish jarayonlari, ifodalari, mohiyati va yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi. Darhaqiqat, insoniyat ichki olamini boyitadigan, uning dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan g'oyalar talqini, ularning badiiy adabiyotdagi ifodasi va buning natijasida milliy adabiyotning takomili masalalarini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik ilmining, balki milliy o'zanda rivoj topayotgan badiiy adabiyotning takomiliga, adabiy jarayonning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Markaziy Osiyoda va xususan O'zbekistonda da chet el adabiyoti, xususan, xitoy adabiyotini atroflicha o'rganish va mazkur adabiyot bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xitoy adabiyoti ham o'z taraqqiyoti davomida jahon adabiyotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etildi. Mana shu jihatdan xitoy adabiyotining madaniyat bilan bog'liq milliy mentaliteti, dunyoni anglashdagi g'oyaviy-badiiy estetik tafakkur va qarashlari, xususiyatlari, adabiyotda obrazlarni badiiy ifoda etish usul va uslublari, adabiy tasavvur shakllarining mazmun va mohiyatini tahlil qilish, qolaversa ahamiyatini ilmiy asoslash adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Sharq xalqlari adabiyoti va xususan xitoy adabiyoti ba'zida soddaligi, ba'zida sirliligi, va eng asosiysi noan'anaviyligi, janrlar xilma-xilligi bilan boshqa xalqlar adabiyotidan keskin farqlanib turadi. Undagi mavzular ko'lami juda keng, kompozitsion qurumi o'zgacha. Xitoy adabiyoti ko'hna tarixga ega va an'analarga boy. Xitoyning mumtoz va zamonaviy adabiyotini o'rganish hozirda O'zbekistonda xitoyshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Xitoy adabiyoti juda qadimgi tarixga ega ekanligi bilan sharq mamlakatlari adabiyotlari orasida ajralib turadi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti sharq filologiyasining xitoy bo'limida o'qiyotgan talabalar bakalavr bosqichining ikkinchi kursidan boshlab xitoy adabiyotini o'rgana boshlaydilar. 4-bosqichga kelib talabalarda xitoy adabiyoti haqida ilk bilimlar shakllangan bo'ladi. Ular avvalgi bosqichlarda bu mo'jaz adabiyotning qadimgi va o'rta asr davrlarini o'rganishadi. Keyingi yuqori bosqichlarda esa xitoy adabiyotining yangi davri xaqida ma'lumotlar beriladi. Xitoy adabiyoti tarixi "Xitoy adabiyoti" nomli fanning namunaviy va o'quv dasturlari asosida yaratilgan. Ma'ruzalar dasturlarga to'liq mos kelishi ta'limning izviyligini ta'minlaydi. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch Oliy ta'lim muassasasi bo'lganligi sababli, yutimizda xitoy tili va adabiyoti o'qitilayotgan boshqa oliy ta'lim maskanlari

bizning universitetimizda yaratilgan dasturlar asosida xitoy tili va adabiyotini o'qitadilar.

O'zbekistondagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mamlakatda o'ziga xos xitoyshunoslik maktabini yaratganiga 60 yildan ortdi. Universitetda saboq berayotgan ustozlar xitoy tilini o'qitish bilan bir qatorda, xitoy adabiyotining serqirra va serjilo tomonlarini yoritib kelmoqdalar. Bundan tashqari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat chet tillar institutlarida ham xitoy tili va adabiyoti talabalar tomonidan zo'r qiziqish bilan o'qib, o'rganilmoqda. Xitoy adabiyoti uch ming yilga yaqin tarixga ega. Unda yuzlab turli janrdagi san'at asarlari yaratilgan. Mashhur adabiyot namoyondalari shakllangan. Xitoy adabiyoti mamlakat ichida shakllanibgina qolmay, balki boshqa qo'shni xalqlar adabiyotiga, xususan Yaponiya, Koreya va Vyetnam adabiyotiga ham o'zining ulkan ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa Yaponiya va Koreya xalqlari adabiyotining ayrim namunalari mumtoz xitoy adabiyotining durdona asarlaridan ilhomlanib yozilganligi, romanlar va hikoyalar, ulardagi janr, syujet va kompozitsion uslub o'xshashligi, xatto ayrim joylarda aynan bir xilligi o'sha davrda qadimgi xitoy adabiy tili bo'lgan "venyan" – bu mamlakatlar hududida hukmron til bo'lganligi haqida biz o'z ilmiy maqolalarimizda asosli ravishda ko'rsatib berganmiz. Keyinchalik bayxuuda yozilgan adabiy asarlar ham xitoy adabiyoti tarixida salmoqli o'rin egallaganligi masalalarini ham yurtimiz xitoyshunoslari o'z ilmiy tadqiqotlarida batafsil yoritilmoqdalar. Yurtimizda Xitoy adabiyoti o'rganishni va umuman XXR bilan adabiy aloqalarimizning rivojlanish jarayonini men quyidagi yo'nalishlar orqali alohida ajratib ko'rsatishni istardim. Avvalo bu xitoy adabiyotini tadqiqi bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlari holati: yozilgan ilmiy dissertatsiyar, monografiyalar, risolalar va ilmiy maqolalar nashrlari borasidagi fikrlar. Ikkinchisi, xitoy adabiyotining oliy ta'lim muassasalarida o'qitish holati: xitoy adabiyotini o'rganuvchi tolibi ilmlar uchun yozilgan darslik va o'quv qo'llanmalari to'g'risidagi mulohazalar. Uchinchisi, xitoy tilidan o'zbek tiliga qilingan kitoblar borasida: ertaklar, hikoyalar, qissalar, romanlar, she'rlar va boshqa janrlardagi tarjimalar haqida ma'lumotlar. To'rtinchisi ham aslida tarjimalar bilan bog'liq masala, ya'ni xitoy kitobxonlari uchun o'zbek adabiyotini tanishtirish masalasi: xitoy tiliga o'girilgan asarlar borasidagi mulohazalar.

Adabiy aloqalar adabiy-ijodiy munosabatlarning o'ziga xos yo'nalishi sifatida qadimdan mamlakatlar, xalqlar va buyuk ijodkorlarning o'zaro hamkorligi va hamfikrligini ta'minlovchi omil bo'lib kelgan. Bugungi kunda jug'rofiy jihatdan Xitoydan tortib Janubi-Sharqiy Yevropagacha, uzoq shimoliy davlatlardan Yaqin Sharq mamlakatlari hududlarigacha tarqalib ketgan turkiyo'g'y xalqlarning, xususan, o'zbek xalqining tarixi, madaniyati, ma'naviyati, hatto mumtoz musiqasini ham o'rganishga G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ham qiziqish benihoya kuchli. Bugungi kunda adabiy aloqalar orqali boy adabiyotimiz namunalari dunyo xalqlari tillariga tarjima qilish dolzarb vazifalardan sanaladi. O'zbekiston va Xitoy adabiyoti o'ziga xosligi, uning turli va o'xshash jihatlarini ochib beriladi. Agar Xitoy sivilizatsiyaning dastlabki elementlarini rivojlantirgan joylardan biri deb hisoblasak, bu qarash boshqacha bo'lishi mumkin ham emas.

Bevosita Xitoy adabiyoti deganimizda ko'z oldimizda eng birinchi Konfutsiy gavdalanadi.

Konfutsiy (xitoycha 孔子, mil. avv. 551-479 yil) – Xitoy faylasufi, konfutsiychilik asoschisi va siyosiy arbob bo'lgan. Uning saboqlari va faylasufligi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vetnam xalqlarining o'y-fikri va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan<sup>18</sup>. Konfutsiy hikmatlari Sharq adabiyotining pand-nasihati yo'nalishida yozilgan yirik ma'naviy merosdir. Ushbu jihati bilan Xitoyning qadimgi adabiyoti Movarounnahr va Xurosonda mavjud bo'lgan adabiy qarashlarga o'xshaydi. Konfutsiy hikmatlarini Alisher Navoiyning birgina "Xamsa" asari tarkibiga kiruvchi "Hayrat ul-abror"ga qiyoslashimiz mumkin.

Konfutsiyning "Jarohat uchun adolatni, ezgulik uchun faqatgina ezgulikni qalqon biling" hikmati "Hayrat ul-abror"ning uchinchi maqolati-Salotin bobiga to'g'ri keladi. Yoxud Xitoyga bo'lgan munosabatni Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" asarida Farhodning tug'ilishida ifoda etadi, yani uning mamlakatini Chin deb ataydi<sup>19</sup>. Ushbu jihatlarda har ikkala millatning bir-biriga azaldan yaqinligiga dalolat beradi. Yangi zamon Xitoy adabiyoti bir necha xususiyatlari bilan bugun farq qiladi. 20-asr davomida xitoy adabiyoti zamonaviylikka qo'shila boshladi, ammo bu jarayon 1949 yildagi inqilob bilan to'xtatildi. 70-yillarning oxiriga qadar adabiyot "sotsialistik realizm" bilan ajralib turardi va eng zamonaviy tendentsiyalarga ega bo'lmagan edi. Bu holat so'nggi o'n yilliklarda o'zgarib, Xitoy adabiyoti Osiyo ichida va tashqarisida katta erkinlik bilan targ'ib qilinmoqda, ammo baribir rejim nazorati ostida va potentsial senzurasida ostida qolmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari xitoy tiliga tarjima qilindi. "O'zbek xalq ertaklari" (tarjimon: Jasur Ziyomammedov) xitoy tiliga o'girildi. Qaysi bir milliy adabiyotning shakllanish va taraqqiyot yo'liga nazar tashlasangiz, uning rivojlanishida adabiy aloqalar va adabiy ta'sirning muhim ahamiyat kasb etganini ko'rasiz. Binobarin, adabiy aloqalar bardavomligi bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning taraqqiy etishiga yordam beruvchi omil bo'lib qoladi.

Xitoy adabiyoti borasida amalga oshirilgan yana bir arzigulik ish Ochilov Ozodjon Mardievich tomonidan yozilgan dissertatsiyadir. Ozodjon Ochilov 2018 yilda "VII-X asrlar Tang davri she'riyatida ramzlar semantikasi" mavzusida filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilganlar. Dunyo adabiy jarayonlarida Tang she'riyati tafakkur, badiiyat, san'at va mahorat jihatidan shunday katta yutuqlarga erishdiki, u hozirgi davr adabiyoti va ijtimoiy hayotida katta manba sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ochilov Ozodjon Mardiyevichning 2022-2024 yillar mobaynida 10.00.06 Chog'ishtirma tilshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisoslik shifri bo'yicha filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun "XX asr birinchi choragida xitoy va o'zbek she'riyati evolyutsiyasi: qiyosiy-tipologik

<sup>18</sup> Lun Yuy "Suhbat va mulohazalar". – Toshkent ., 2014

<sup>19</sup> file:///C:/Users/User/Downloads/sharq-adabiyotshunosligi-adabiy-aloqalar-va-millatlararo.pdf

tahlil” mavzusida doktorlik dissertatsiyasi mavzusi ustida qizg‘in ish olib bormoqdalar. Shu kunga qadar Ozod Ochilov tomonidan yurtimizda “Tang davri she’riyatida ramzlar semantikasi” (Toshkent, 2020yil) hamda “Xitoy folklori”(Toshkent, 2018yil) nomli monografiyalari, J.Ziyamuhamedov bilan hammualliflikda “Xitoy adabiyoti (qadimgi va o‘rta asrlar)” (Toshkent, 2020yil) nomli darsligi, shu bilan bir qatorda xitoy adabiyoti tadqiqiga doir 25 dan ortiq ilmiy maqolalari e‘lon qilingan<sup>20</sup>.

O‘zbekistonda xitoy adabiyoti bo‘yicha yana bir ilmiy tadqiqotlardan biri Nazirova Shukriya Miadovnaning 10.00.05 – Osiyo va Afrika tillari adabiyoti va tili ixtisosligi bo‘yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan “Xitoyda ayollar ababiyoti: genezisi va takomil bosqichlari” mavzusidagi PhD dissertatsiyasidir. Mazkur dissertatsiyada Xitoyda “ayollar adabiyoti”ning ildizlari, uning paydo bo‘lish sabab va omillari, taraqqiyot bosqichlari tizimli tahlil qilinadi. Shukriya Nazirova tomonidan “Xitoy adabiyoti XX-XXI asrlar Xitoyda ayollar adabiyotining shakllanish omillari va takomil bosqichlari”<sup>21</sup> nomli monografiya va talabalar uchun o‘quv qo‘llanma ham nashr qilindi. Xitoyshunos ustozimiz Shukriya Nazirovaning ishlarini davom ettirgan holda Xitoyda zamonaviy “ayollar adabiyoti”ning shakllanish asoslari (XIXasr oxiri XX asr birinchi yarmi) mavzusida bitiruv malakaviy ishi Dildora Umarova tomonidan 2022-yil muvoffaqiyatli himoya qilingan.

Xulosa. Hozirgi o‘zbek adabiyotining ko‘rki bo‘lgan asarlarni boshqa tillarga, xorijiy xalqlar adabiyotining mumtoz namunalarini esa o‘zbek tiliga tarjima qilish, bir tomondan, milliy adabiyotimizga yangi adabiy havoning kirib kelishiga, yangi badiiy-uslubiy izlanishlarning g‘uncha ochishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan, xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvi, binobarin, notinch dunyoda tinchlik-totuvlik, mehr va muhabbat qaldirg‘ochlarining parvoz qilishiga sharoit yaratadi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy aloqalar havas qilarlik darajada yuksalib borayotgan bir paytda O‘zbekiston va Xitoy adabiy hamkorligi, aloqalari ham yanada mustahkamlansa, har jihatdan maqbul ish bo‘lar edi. Qolaversa, bizni Xitoy madaniyati, jumladan, adabiyotining o‘tmishi va buguni bilan bog‘laydigan nuqtalar ko‘p. Adabiy aloqalarga adabiyot ilmida ijodiy jarayonning muhim qonuniyatlaridan biri, har bir milliy adabiyot taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi yetakchi omil sifatida qaralsa-da, u badiiy adabiyot masalalaridan ko‘ra kengroq mohiyatni qamrab oladi. Uning dunyoqarash, millat, ma’naviyat, madaniyat, jamiyat ravnaqiga ta’sir ko‘rsata oladigan qirralari bisyor. To‘g‘ri, tarjima ishida, asarlarimiz qaysi tilga o‘girilsa, shu xalqning adabiy-badiiy tilini mukammal biluvchi mutaxassis asosiy rol o‘ynaydi, albatta. Bu haqda boshqacha fikr bo‘lishi mumkin emas. Biroq qachon ana shunday mutarjimlar topilib, bizning asarlarimizni tarjima qilishga kirishadi, deb kutib o‘tirish yoxud ularni bu ishga jalb etish, tarix ko‘rsatishicha, uzoq muddatli, sekin kechadigan jarayondir.

<sup>20</sup> file:///C:/Users/User/Desktop/xitoy\_adabiyotining\_o\_zbekistonda\_o\_rganilishi\_va\_rivojlanishi.pdf

<sup>21</sup> Nazirova Shukriya. Xitoy adabiyoti XX-XXI asrlar Xitoyda ayollar adabiyotining shakllanish omillari va takomil bosqichlari. Monografiya. TDSHU. Toshkent, 2021 yil.

### Adabiyotlar ro'yhati

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1997.– Б. 296.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1997.– Б. 297.
3. Kh-davron.uz/oybek-adbiyot-togrisida.html
4. Lun Yuy “Suhbat va mulohazalar”. – Toshkent ., 2014
5. <file:///C:/Users/User/Downloads/sharq-adabiyotshunosligi-adabiy-aloqalar-va-millatlararo.pdf>
6. [file:///C:/Users/User/Desktop/xitoy\\_adabiyotining\\_o\\_zbekistonda\\_o\\_rganilishi va\\_rivojlanishi.pdf](file:///C:/Users/User/Desktop/xitoy_adabiyotining_o_zbekistonda_o_rganilishi_va_rivojlanishi.pdf)
7. Nazirova Shukriya. Xitoy adabiyoti XX-XXI asrlar Xitoyda ayollar adabiyotining shakllanish omillari va takomil bosqichlari. Monografiya. TDSHU. Toshkent, 2021 yil.

## МАХТУМҚУЛИ ИЖОДИДА САБР-ҚАНОАТ ТАЛҚИНИ

*Sabr etib sen, jon aro quvvatni ko'r...*

*Fazilat Xolmuminovna Qosimova*  
*TDYU qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi*  
*akademik litsey o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada turkman shoiri ijodidagi odamiylik fazilatlari, xususan, sabr-qanoat tasviri tahlilga tortilgan. Shoirning axloqiy mazmundagi to'rtliklari misolida inson kamolotida muhim o'rin tutgan xislatlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** sabr, qanoat, axloqiy yetuklik, tama, kibr, manmanlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются качества человечности в творчестве туркменского поэта, в частности, изображаются терпения и довольства. На примере четверостиший нравственного содержания поэта выделены качества, имеющие важное место в развитии человека.

**Ключевые слова:** терпение, довольство, нравственная зрелость, честолюбие, гордость, высокомерие.

**Abstract.** This article analyzes the qualities of humanity in the work of the Turkmen poet, especially the image of patience and contentment. On the example of the poet's quatrains of moral content, the qualities that have an important place in human development are highlighted.

**Key words:** patience, contentment, moral maturity, ambition, pride, arrogance.

XXI asr tom ma'noda ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar ildamligi qurshovida voqe' bo'layotgan ekan, har qanday ezgu amalga salbiy parokandalik soya solganidek, davr bashariyatida ruhiyat taskini, ko'ngil zavqini his qilish ilohiyati parda ortida qolayotgandek, nazarimda. Adabiyot mana shu kemptiklikni to'ldira oladigan, inson o'zligini o'ziga tanitadigan ilohiy kuchdir. Har qaysi davrda ham badiiy adabiyot injulari odamiylik xislatlarini tarannum etgan va kishi qalbiga hech bir tarjimonsiz, tuyg'ular kashfi orqali kirib bora olgan. Ayniqsa, she'riyat olami ruh pokligi, ko'ngil xotirjamligi, hissiyotlar bardavomligida nihoyatda muhim ta'sir kuchiga ega. Tasavvufiy g'oyalarni bevosita aks ettirgan mumtoz she'riyat esa asl ma'nodagi samimiyat xazinasidir. Ayni xazinada salmoqli o'ringa ega bo'lgan Maxtumquli she'riyatida ham badiiyatning ilohiy qudrati yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir merosida tasavvufiy adabiyotning asos mohiyatini tashkil qiladigan odamiylik fazilatlari shu qadar sof ohang bilan tarannum etilganki, o'quvchi beixtiyor ko'ngil hislariga vobasta bo'la boshlaydi. Maxtumquli she'riyatida pand- nasihat asosiy o'rinda turishi ayni haqiqat, lekin bu shunchaki quruq va jo'n targ'ibotchilikdan batamom holi ijodiyotdir. Shoir har bir pandi zamiriga xalqchil samimiyatni singdirganligi bois, kitobxon mutolaa jarayonida Maxtumquli bilan yuzma-yuz so'zlashayotgandek, dardlarini aytib, yengil tin olayotgandek bo'ladi. Chunonchi:

*Tengsiz bilan teng aylasang o'zingni,  
Dard bo'libon so'zi o'tar joningdan,  
Yiroq bo'lma qadring bilgan qardoshdan,  
Har ish qilsang, ul quvonar yoningdan*<sup>22</sup>.

Maxtumquli ijodida mavzular ko'lami nihoyatda turfa xil. Vatanparvarlik mavzusi bo'ladimi va yoki ishq-muhabbat talqinimi, yoki bo'lmasa hasbi hol, sayru sayohat yo'nalishimi, barcha-barchasi o'ziga xos obrazlar talqiniyu, tasavvufiy istilohlar vositasida san'atkorona nuktadonlik bilan yuzaga chiqarilgan. Lekin shoir har bir mavzuni yoritish jarayonida diniy-tasavvufiy ruhiy barkamollik bosqichlari maqomotlarini she'r shuuriga zo'rma-zo'rakilik bilan emas, g'oyibona samimiyat bilan singdirib yuborgandek, go'yo. Shu bois ham bu durdona misralar ta'sirida inson beixtiyor o'z vujudini so'roqqa tutib, ichki olamidagi qarama-qarshilik g'alayonlarida ezgulik muzaffariyatini taniy boshlaydi.

*Mast bo'lib yurguncha musofir yurtda,  
Unib-o'sgan o'z yurtindan ayrilma.  
Mag'rur kaklik kabi nafs degan dardda  
Domga tushib, qanotingdan ayrilma.*

*Tavakkal et- xalqqa siring berib bor,  
Sabrli bo'l, besabrlilik ham bekor,  
Har qaerga borsang nasibangdir yor,  
Boy bo'lay deb izzatingdan ayrilma*<sup>23</sup>!

Ma'lumki, tasavvufshunos olim Abulqosim Kushayriy suluk yo'liga kirgan kishi to'rt maqomni bosib o'tishi lozimligini ta'kidlaydi. Bular: shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat. Sharqshunos olim Najmiddin Komilovning «Tasavvuf» ilmiy risolasida birinchilardan bo'lib so'fiyona holatlar va karomatlarini so'z bilan ifodalagan Zunnun haqida shunday hikoya keltiriladi: «Uch safar qildim va uch ilm keltirdim: avvalgi safarda bir ilm keltirdim, xos ham avom ham qabul qildilar, ikkinchi safarda yana bir ilm keltirdim, xos qabul qildi, ammo avom qabul qilmadi. Uchinchi safarda yana bir ilm hosil qilib keltirdim, na xos qabul qildi, na avom<sup>24</sup>.» Olim hikoyani sharhlar ekan, birinchi ilm shariat, ikkinchi ilm tariqat yoxud muomalat va muhabbat ilmi ekanligini aytib o'tadi. Avom shariat qonuniyatlarini qalbdagi iymon nuri ta'sirida to'laligicha o'rganib qabul qila oladi, lekin tariqat maqomotlarining tub mohiyatiga yetib borish uchun maxsus sharhlar ko'magiga ehtiyoj seziladi. Maxtumquli har bir tirik insonni munavvar nur olamiga olib kirishni maqsad qilgan, jafokash millatga ruhiy barkamollik bosqichlari shartlarini sodda tushunarli uslub bilan, asosiysi, ko'ngil zavqi va ertangi kunga sobit ishonch ruhi bilan yetkazishga bel bog'lagan mardonavor shoir edi. Shuning uchun ham shoir ijodida tasavvuf haqidagi ilmiy qo'llanmalar muallifi Abu Nasr Sarroj qayd etgan o'n bir maqom, tavba, vara`, zuhd, faqr, sabr, xavf, rajo, tavakkul, rizinging mohiyati to'laligicha ochib berilgan ko'plab namunalarga duch kelamiz. Bu

<sup>22</sup> Maxtumquli. Булбул ноласи (Туркман тилидан Эргаш Очилов таржимаси). Тошкент, 2014. 105-бет.

<sup>23</sup> Maxtumquli. Булбул ноласи. (Туркман тилидан Эргаш Очилов таржимаси). Тошкент, 2014. 23-бет.

<sup>24</sup> Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Тошкент, 1996. 21-бет.

maqomlardan barchasining qabul qilinishida, insonning eng xavfli yog'iysi nafs balosini yengib o'tishida muhim tasalli bo'lmish sabr maqomi haqida shoir she'riyatida teran fikrlarni ko'rishimiz mumkin. Xo'sh sabr qanday maqom o'zi? Bu tushuncha avom nazdida turli g'am tashvishlarga bor quvvatni ishga solib chidash ma'nosini anglatadi. Abu Homid G'azzoliy "Mukoshafat ul-qulub" asarida sabrning bebaho ne'mat ekanligini quyidagicha izohlaydi: "Alloh Qur'onning sal kam to'qson joyida sabrni zikr etgan, bir qancha darajalarni va yaxshiliklarni sabrga bog'lagan, ma'naviy yuksaklik va xayrlarni sabrning samarasi qilgan va sabrlilar uchun hech bir kimsaga hozirlamagan ne'matlarini tayyorlab qo'ygan<sup>25</sup>." Maxtumquli nazdida ham sabr faqatgina toqat, chidam, uqubatlarni ichga yutish emas, ilohiy ma'rifatga eltuvchi mayoq, ruhiyat erkinligini ta'minlovchi ulug'vor maqom.

*Och bo'lsang ham borma elga tilanib,  
«Ko'shkdaman», - de, - boshim ko'kka ulanib»,  
Bir soya topmasang sahroda yonib,  
Eram bog'i ichra soya topdim de.*

*Muhtojliging Haqdan o'zga bilmasa,  
Kifoyadir kishi ochdan o'lmasa,  
Hindi kabi usti-boshing bo'lmasa,  
Egnimga shoh libosini soldim de<sup>26</sup>.*

Dunyoda kimgadir mute bo'lib, nimanidir tilanish darajasiga tushishdan ortiqroq xorlik yo'q. Kishi boshiga qanday kulfat soya solmasin, sabr-u iroda kuchini ne-ne alam to'rlari chig'iridandan o'tkazmasin, yagona ehtiyoj Yaratgan karamidan bo'lishi maqbul amaldir. Inson ruhiyatidagi ma'naviy-ma'rifiy tanazzulning o'q ildizi nafs balosini jilovlay olmaslik, alaloqibat har kimdan nimanidir tama qilib yashashga ko'nikib ketish illatiga borib taqaladi. Bunday havoyi yengil-yelpi hayot tarzidan avomni qutqarishning yagona chorasi tasavvufiy g'oyalarni pand-nasihati usulida xalqning og'ziga tushib, yod bo'lib ketadigan misralar mohiyatiga singdirish ekanligini Maxtumquli yaxshi anglagan. Navoiyshunos olim, ustoz Ibrohim Haqqul fikrlari ham so'zimizga dalildir: «Mutasavviflarning umumiy qanoati bo'yicha, tasavvuf dalli-devonani valiga, johilu gumrohni ma'rifat darg'asiga aylantiradi. Darhaqiqat, nodon, olchoq, tabiatan mayda kimsani tasavvufiy tarbiya o'zining qo'rqqoqligi hamda tubanliklaridan uyaladigan, ishq va irfonni har nimadan ustun ko'radigan butun shaxs darajasiga ko'tarishga qodir. Bunga ishonch hosil etish uchun Maxtumquli she'riyatining yuragiga quloq tutish lozim<sup>27</sup>.»

Maxtumquli millatdosh qardoshlari uchun jon kuydirgan, adoqsiz azob-uqubatlarni zamona miskinlari bilan teppa-teng tatib ko'rgan, bu g'am selida oqmaslik uchun sobirlik darajasiga ko'tarila olgan benazir inson edi. U o'z she'rlarini tunganmas boshboshdoqliklardan jabr ko'rayotgan turkman xalqi dardiga

<sup>25</sup> Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. Toshkent, 2004. 168-bet.

<sup>26</sup> Maxtumquli. Bulbul nolasi (Turkman tiliidan Ergash Ochilov tarjimasi). Toshkent, 2014. 100-bet.

<sup>27</sup> Xaqqul I. Talant-jasorat javohiri. Toshkent, 2018. 83-bet.

darmon bo'lishini xohladi. Dunyo bir bevafo malak singari har maqomga yo'rg'alashi asrlar silsilasida isbotini topib kelayotgan jarayon ekanligini, toqat ila o'rganilgan irfon nuri esa ruhiyatni abadiy birlik lazzatiga olib borishi muqarrarligini takror va takror dalillashga urindi:

*Maxtumquli so'zin bari nasihat,  
Xudoga qul bo'ling, Rasulga ummat.  
Bilsangiz bu dunyo bosh-oyoq hasrat,  
Hasrat bilan bir-bir ketib boradir<sup>28</sup>.*

Dastavval, zamon voqeligiga nazar solganimiz bejiz emas. Insoniyat hayoti to'kinlashib borayotganligi, har sohada imkoniyat va erkinliklar tobora oldinlayotgani sari ruhoniyyat mohiyatidan uzoqlashish jadallashib bormoqda. Kishi qay darajada, qay maqomda umr kechirmasin, ruhiyatida Alloh ato etgan ma'naviyat va ma'rifatga oshuftalik ehtiyoji yashirin bo'ladi. Bashariyat shunchaki yaratiq emas, moddiyat uchun umr kechirishga mahkumlik uning aqlini egallashi bamisli falokat to'fonidir. Har bir soniyada umr g'animatligini dalillab turadigan jarayonlar silsilasiga qaramasdan, moddiyat ravnaqi uchun hayot tarzini shakllantirish, men hayvonot olamida barqarorman, deyish bilan barobar, nazarimda. Tasavvuf ilmi asosini tashkil qiladigan ruhiy barkamollik sifatlarining Maxtumquli ijodiyotidagi ulug'vor va samimiy tasviri navqiron avlod tarbiyasida muhim dasturulamal vazifasini o'taydi. Zero, shoir maqsadi ham shu savobli amalni zamon va makon chegarasidan olib o'tish bo'lganligiga ishonchim komil.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Махтумқули. Булбул ноласи (Туркман тилидан Эргаш Очиллов таржимаси). Тошкент, 2014.
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Тошкент, 1996.
3. Абу Ҳомид Ғаззолий. Мукошафат ул-қулуб. Тошкент, 2004.
4. Ҳаққул И. Талант-жасорат жавҳари. Тошкент, 2018.

<sup>28</sup> Махтумқули. Булбул ноласи (Туркман тилидан Эргаш Очиллов таржимаси). Тошкент, 2014. 72-бет.

## ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ УЛУЧШЕНИЯ УСВОЕНИЯ БИОИНФОРМАТИКИ

*Амонов Абдуллазиз Уктамович*  
*Преподаватель кафедры Ботаника и физиология растений*  
*Бух.ГУ*

*Шаринов Дилшод Нурхон угли*  
*Студент 3 курса направления Биология Бух.ГУ*

**Аннотация.** В статье описаны данные использования современной педагогической технологии “Цепочка” для улучшения усвоения преподавания предмета биотехнология.

**Ключевые слова:** биотехнология, метод, «цепочка», «бумеранг», «найди пару», «мозговая атака», LAMS, COMPROTEIN.

**Annotatsiya.** Maqolada biotexnologiya fanini o'zlashtirishni takomillashtirish uchun "Zanjir" zamonaviy pedagogik texnologiyasidan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** biotexnologiya, usul, "Zanjir", "bumerang", "juftingni top", "aqliy hujum", LAMS, COMPROTEIN.

**Abstract.** The article describes data on the use of modern pedagogical technology “Chain” to improve the acquisition of teaching the subject of biotechnology.

**Key words:** biotechnology, method, "chain", “boomerang”, “find a pair”, “brainstorming”, LAMS, COMPROTEIN.

Быстрое развитие компьютерных и информационных технологий в последние годы привело к появлению технологий электронного обучения, которые улучшают и дополняют традиционное аудиторное обучение во многих областях, включая биоинформатику. В последние годы ученые-биоинформатики стали свидетелями появления все более важной дисциплины биологии - объединения биологии и информатики для управления биологическими данными и их интеллектуального анализа, дополняющего, ускоряющего и расширяющего практику биологических исследований. Появление биоинформатики создало растущий спрос в исследовательской отрасли на хорошо подготовленных выпускников, специализирующихся в этой дисциплине, который должен быть удовлетворен учебными заведениями за счет эффективного включения и преподавания биоинформатики в традиционную учебную программу по наукам о жизни.

Ввиду высокого спроса на ученых-биоинформатиков многие университеты в разных странах сегодня уже частично или полностью включили биоинформатику в свои курсы бакалавриата и магистратуры. В контексте биоинформатического образования, из-за междисциплинарного и компьютерно-характера биоинформатики, традиционные

педагогические методы обучения биологии должны быть пересмотрены, а новые педагогические стратегии должны быть приняты и адаптированы, чтобы лучше соответствовать потребностям преподавания и усвоения знаний в данной области.

С быстрым развитием компьютерных и информационных технологий в современную эпоху технологии электронного обучения, такие как система управления учебной деятельностью (LAMS) и wiki, были внедрены для улучшения и дополнения традиционного обучения в классе, обещая более эффективные и беспроблемные альтернативы для подготовки учебных материалов, оценки успеваемости учащихся и управления данными и статистикой в аудитории. С другой стороны, электронное обучение дает учащимся большую степень контроля над темпом обучения и опытом. В такой дисциплине, как биоинформатика, которая в значительной степени зависит от использования компьютеров, электронное обучение особенно выгодно и удобно для получения мгновенного практического опыта обучения.

Известно, что процесс обучения способствует активному участию, решению проблем и самостоятельному обучению, тем самым трансформируя традиционный опыт обучения из обучения под руководством учителя в обучение, ориентированное на учащихся, и предлагая новый источник расширения прав и возможностей учащихся.

Биоинформатика своего рода одна из сложно усваиваемых предметов студентами, для улучшения усвоения предмета и терминов используемых в процессе занятия мы часто используем новые и инновационные методы как, «цепочка», «бумеранг», «найди пару», «мозговая атака» и др. при укреплении предмета и терминов часто используемых в процессе занятия особенно эффективно использовать интерактивный метод «цепочка». традиционная цепочку используют как, пересказ прошлой темы, но мы на занятиях усовершенствовали и внедрили новшество, разработали следующую методику проведения этого метода.

Студент называет термин или слова по теме, сидевший рядом описывает термин или слово, называет свой вариант и так все студенты называют свои варианты и отвечают на варианты сверстников. Такой метод улучшает усвоение новых терминов и слов, так как повторяется несколько раз, раскрывается студентами, описывается, характеризуется, переводится из терминологии на понятия.

Например, студент задаёт вопрос, что такое биоинформатика?

ответ -Биоинформатика - междисциплинарная область, объединяющая общую биологию, молекулярную биологию, кибернетику, генетику, химию, компьютерные науки, математику и статистику.

вопрос-что включает в себя биоинформатика?

ответ- Биоинформатика главным образом включает в себя изучение и разработку компьютерных методов и направлена на получение, анализ, хранение, организацию и визуализацию биологических данных.

вопрос-Что такое COMPROTEIN

ответ- это инструмент для определения первичной структуры белка с использованием данных секвенирования пептидов по методу Эдмана.

Такой метод укрепляет пройденную тему, повторением студенты усваивают и закрепляют пройденное.

#### Список использованной литературы

1. Amonov A. BUXORO VILOYATI VA UNGA SHEGARADOSH HUDUDLARDA UCHROVCHI YIRTQICH QUSHLARNING TUR TARKIBI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 34. – №. 34.
2. Tsiferova N. A. et al. Tannins, novel inhibitors of the volume regulation and the volume-sensitive anion channel //European Pharmaceutical Journal. – 2019. – Т. 66. – №. 2. – С. 37-44.
3. Усмонова Д. БАЛИҚЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАЛИҚ ОЗУҚАСИ СИФАТИДА ТУБАН СУВ ЎТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
4. Сафарова З. Т., Райимов А. Р., Саидова М. Адаптирование детей к новым социальным условиям //Научный журнал. – 2018. – №. 5 (28). – С. 20-22.
5. Сафарова З. Т. ХАЛҚ ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ДАРСИДА ҚЎЛЛАШНИНГ ФИЗИОЛОГИК АФЗАЛЛИКЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 44-46.
6. Сафарова З. Т., Сафарова З. Т., Фаромонова О. С. Қ. МИЛЛИЙ ҲАРАКАТЛИ СПОРТ ЎЙИНЛАРИНИНГ МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИДАГИ РОЛИ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 385-388.
7. Сафарова З., Асадова Н. НАУЧНЫЕ ТЕРМИНЫ ЗАЛОГ УЛУЧШЕНИЯ ПАМЯТИ СТУДЕНТА //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2022. – Т. 1. – №. 25. – С. 121-122.

## ФАКТОРЫ, СПОСОБСТВУЮЩИЕ ПОВЫШЕНИЮ САМОСОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ПЕДАГОГА

*Орлова Т. А.*

*д.п.н., и.о. доц. кафедры «Физика и  
методика её преподавания» ТГПУ имени  
Низами*

*Хван К.А.*

*студент 1 курса "Profī Universiti"*

**Аннотация.** В статье приводятся факторы, способствующие повышению самосовершенствования педагога, также приводятся условия этого процесса. Обоснована необходимость самосовершенствования педагога в педагога в общеобразовательных и высших учебных учреждениях.

**Ключевые слова:** Педагог, самосовершенствование, саморазвитие, личность, профессиональный рост, карьера, факторы.

**Annotation.** The article provides factors that contribute to increasing teacher self-improvement, and also provides the conditions for this process. The necessity of self-improvement of a teacher into a teacher in general education and higher institutions is substantiated.

**Key words:** Teacher, self-improvement, self-development, personality, professional growth, career, factors.

Профессиональное самосовершенствование педагога – это сознательный целенаправленный процесс повышения уровня своей профессиональной компетентности и развития профессионально значимых качеств в соответствии с внешними социальными требованиями, условиями профессиональной деятельности и личной программой развития.

Самообразование и самосовершенствование – главные факторы повышения профессиональной компетентности педагога и залог успешного развития его учащихся [1].

Современная стратегия непрерывного педагогического образования в Узбекистане ориентирована на:

- потребность в развитии личности и общества в целом;
- процесс расширения компетентностей образования современных педагогов.

Актуальность статьи в том, что для осуществления своей профессиональной деятельности, педагогу необходимо иметь определённый уровень профессиональной компетентности, и быть готовым к решению профессиональных задач.

И один из показателей профессиональной компетентности педагога, является его самосовершенствование, которое может проявиться в неудовлетворении его настоящим положением в его образовательной деятельности, и стремлению к профессиональному росту.

В данной статье, мы приведём факторы, которые на наш взгляд будут способствовать повышению самосовершенствованию педагога.

Проблема самосовершенствования педагогов очень актуальна в условиях информационного общества, цифровой среды, где особенно важно иметь доступ к информации, а также успешно с ней работать.

Информационное общество характеризуется, как обществознание, где происходит процесс трансформации информации в знание.

Постоянный процесс самосовершенствования педагога – это тот определяющий актив, который помогает «идти в ногу со временем». Так как общественный социальный заказ, всегда предъявлял педагогу – самые высокие требования. Чтобы учить детей – нужно знать больше, чем все другие. Способность к самосовершенствованию определяется психологическими и интеллектуальными показателями каждого педагога в отдельности. Процесс самосовершенствования педагога и качество обучения и воспитания в учебных заведениях учащихся, зависит от его уровня подготовки к учебным занятиям [2].

Самосовершенствование – является потребностью творческого и ответственного человека с повышенной социальной, духовной и моральной ответственностью, которой является профессия педагога.

Как может происходить самосовершенствование педагога:

1. Изучение и внедрение новых педагогических технологий и инновационных методов обучения;
2. Взаимо посещение занятий коллег и обмен опытом;
3. Произведение самоанализа своей профессиональной деятельности;
4. Совершенствование знаний в области педагогики и психологии;
5. Интерес к событиям в стране: экономической, культурной, политической, спортивной, интеллектуальной и т.д.
6. Повышений своей эрудиции, экологической и эстетической культуры, а также профессиональных компетенций.

Если речь идёт о педагоге, который только начинает свой профессиональный путь, то ему необходима работа по самообразованию – пополнению своих знаний в предметной области, также их конкретизация, осуществление глубокого анализа по ситуациям, возникающими в работе с учащимися. Тогда у этих педагогов формируется гибкость мышления, развивается умение моделировать и прогнозировать воспитательно – образовательный процесс, также происходит раскрытие творческого и креативного потенциала. Самосовершенствование педагога – способствует выработки и развитию таких психических процессов, как – внимание, память, аналитическое и критическое мышление, все это входит в необходимое условие успешного повышения уровня квалификации педагога [3].

В результате самосовершенствования у педагога проявляется ключевые качества и навыки:

1. Умение планировать свою педагогическую деятельность и ставить цели в работе;
2. Умение работать с информационными источниками, их анализировать, подбирать и обобщать информацию;
3. В информационном собранном массиве данных обобщать материал, - выделять главное из второстепенного, составлять схемы и таблицы;
4. Умение аргументировано приводить свои собственные доводы или опровергать суждения по данной проблеме;
5. Умение группировать изученные ранее факты – составлять графики и диаграммы.

Формирование ключевых компетенций в процессе самосовершенствования педагога является процессом, при котором на него оказывают влияния совокупность различных условий – внешних и внутренних.

Педагогические условия – это существенный компонент педагогического процесса, интегрирующий в себе определённую совокупность мер, направленных на достижение поставленной цели. Под совокупностью таких мер понимаем, определяющие внешние характеристики педагогического процесса – содержание, формы, методы, педагогические приёмы и средства материально – пространственной среды, ориентированные на определённые взаимоотношения с внутренним миром педагога – потребностями, интересами, ценностными ориентациями и т.д.[4].

Профессионализм педагога, отражает высокую профессиональную квалификацию и компетентность, применяя в своей профессиональной деятельности умения и навыки, основанные на творческих решениях, владения новыми алгоритмами и современными способами решения профессиональных задач – все это позволит осуществлять педагогу свою профессиональную деятельность наиболее эффективно и со стабильной продуктивностью.

Один из важных критериев к профессионализму – это умение педагога самостоятельно приобретать новые знания и умения и пользоваться ими в своей практической деятельности. Высшим критерием профессионального самосовершенствования педагога – это его готовность к непрерывному личностно – профессиональному совершенствованию с учётом изменяющихся социальных условий [5].

Продукт самосовершенствования педагога выражается в:

- его разработке авторских методических пособий, конспектов уроков;
- разработка дидактических материалов для текущих уроков и для итогового контроля учащихся;
- открытые уроки по авторскому сценарию и применение в них инновационных методов и технологий;
- выступление педагога на педагогических советах, республиканских и международных конференциях с докладом;

- разработка собственных рекомендаций по работе с учащимися и родителями по вопросам воспитания и образования;
- организация кружковой работы по предмету, изготовление с учащимися наглядных пособий и поделок.
- повышение уровня и качества знаний, умений и навыков у учащихся по предмету.

Чтобы педагогу самосовершенствоваться, необходимо выявить факторы, которые будут влиять на весь процесс [6]. В данной статье рассмотрим факторы, влияющие на самосовершенствование педагога.

Фактор – это причина, движущая сила, влияющая на развитие какого – либо процесса [7].

Например, внутренним фактором, влияющим на совершенствование педагога это – психологические особенности: мотивация, интерес, увлечённость, эмоции и т.д. [8].

К внешним факторам, которые способствуют самосовершенствованию педагога относятся те условия и окружение, в которых протекает его профессиональная деятельность.

Из вышеизложенного, сделаем вывод, что учебную деятельность учащихся – можно рассматривать, как один из важных факторов, влияющих на самосовершенствование педагога.

Есть также социальные факторы, которые также, имеют место в самосовершенствовании педагога, это может быть возможность для осуществления творческой и креативной работы, материальное стимулирование и бытовые условия жизни, а также учебно – материальное обеспечение учебных заведений, где он работает [9].



Рис.1 Социально – педагогические факторы педагога

У будущих и начинающих педагогов фактор, затрудняющий самосовершенствование является страх начала своей профессиональной карьеры в учебных заведениях.

Этот страх проявляется в сомнениях своих знаний по предмету, и своей в целом профессиональной компетентности. Также – ожидание и реальность в плане заработной платы, трудности в принятии того, что профессионализм – это качество педагога, и оно может сформироваться только с большим течением времени. На профессиональное становление педагога уходят годы работы в учебных учреждениях и даже десятки лет.

Негативное мнение начинающего педагога возникает при несовпадении реальной профессиональной сферой жизни с его сформированными представлениями и ожиданиями – и является фактором, который может не давать самосовершенствоваться педагогу.

Важные факторы, влияющие на самосовершенствование педагога – это ожидание и оценка окружения – коллег, учащихся и администрации на его работе.

Внутренний фактор, который оказывает влияние на самосовершенствование педагога – это внутренняя активность личности, в плане реализации себя в профессии и самопознании профессиональной деятельности.



Рис. 2. Личностно – психологические факторы педагога

В заключение нашей статьи, мы можем сделать вывод, что профессионализм, самосовершенствование и компетентность педагогов – является важным аспектом реформирования современного демократического общества и модернизации учебных заведений и образования в них. Общество и формирует социальный заказ, который нацелен на то, чтобы происходило

формирование эрудированных, грамотных, креативных и творческих педагогов, способных применять свои знания в процессе своей трудовой деятельности [10]. Поэтому процесс самосовершенствования педагога и факторы, рассмотренные в данной статье – являются очень важными для будущего поколения нашей страны и общества в целом.

### Литература

1. Квашко, Л. П. Личностно-профессиональное саморазвитие: миф или реальность? / Л. П. Квашко. — М.: Владивосток: Дальневосточный университет, 2016. — 260 с.
2. Хатунцева С.Н. Проблема самосовершенствования будущего учителя // Инновационные образовательные технологии. 2015. № 3 (43). С. 9-13.
3. Анохина Е.А. Самообразование и самосовершенствование - ведущие факторы повышения профессиональной компетентности педагога и залог успешного развития воспитанников // Методическая разработка. - 2021 г.
4. <https://nsportal.ru/detskiy-sad/upravlenie-dou/2021/05/12/samoobrazovanie-i-samosovershenstvovanie-vedushchie-factory>
5. Лайкина Т.А., Горшенина С.Н. Педагогические условия формирования компетенции личностного самосовершенствования будущих педагогов в дополнительном профессиональном образовании // Проблемы образования в условиях инновационного развития / под ред. Ж.А. Каско. Саранск, 2018.С. 70-74.
6. Кунаковская Л.А. Самосовершенствование педагога высшей школы // Педагогическое образование и наука. 2014. № 6. С. 89-93.
7. Байсалова К.Н, Саутбеков С., Нургалиева К.Е. Фактора, влияющие на развитие самообразования педагогов в современных условиях / Материалы 50 – ой научно – методической конференции «Современная интерпретация педагогической концепции аль – Фараби в условиях цифровизации образования, г. Алматы. - 2020. с. 49-57.
8. Столяренко, Л. Д. Психология и педагогика: Учебник для академического бакалавриата / Л. Д. Столяренко, В. Е. Столяренко. — Люберцы: Юрайт, 2016. — 509 с.
9. Леонтьев А. А. Психология общения. — 2 е изд., испр. и доп. — М.: Смысл, 1997. — 365 с.
10. Мартынова А.В. Факторы, влияющие на формирование профессионального самосознания будущего учителя начальной школы // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 5. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=21925>
11. Орлова Т. А. Развитие профессиональной компетентности будущих учителей физики, на основе решения задач по астрономии // Монография. Ташкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. - 148 с.

**ЎЗИНИ ЎЗИ БАНД ҚИЛУВЧИ ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР  
ДАРОМАДЛАРИНИ СОЛИҚҚА ТОРТИШНИНГ АҚШ ТАЖРИБАСИ  
ВА УНДАН СОЛИҚ СИЁСАТИМИЗДА ФОЙДАЛАНИШ  
ИМКОНИЯТЛАРИ**

*Сотимов Достон Қахрамон ўғли*  
*Банк Молия Академияси талабаси*

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон Республикасида иқтисодиёт эркинлашуви ва модернизациясининг ҳозирги босқичида жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш амалиётини бошқаришнинг концептуал асослари ва иқтисодий самарадорлиги мезонлари тадқиқ этилган. Шунингдек, ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларда, жумладан, АҚШ, юридик ва жисмоний шахсларни солиққа тортишнинг ўзига хос хусусиятлари, корпорациялардан олинadиган корпорация солиғини ҳисоблаш ва бюджетга тўлаш тартиби, қўшилган қиймат солиғининг амал қилиш механизмини, акциз солиғи ва бошқа маҳаллий солиқ ва йиғимларни ҳисоблаш ҳамда бюджетга тўлаш тартиби каби масалалар кенг ёритилган.

**Калит сўзлар:** иқтисодиёт, модернизация, жисмоний шахс, даромад, солиқ, самарадорлик.

**Абстракт.** В статье исследуются концептуальные основы и критерии экономической эффективности управления операцией налогообложения доходов физических лиц на современном этапе либерализации и модернизации экономики в Республике Узбекистан. Также в развитых и развивающихся странах, в том числе в США, особенности налогообложения юридических и физических лиц, порядок исчисления и уплаты в бюджет корпоративного налога с корпораций, механизм налога на добавленную стоимость, исчисление и уплата в бюджет налога на добавленную стоимость, бюджет акцизного налога и других местных налогов и сборов, такие вопросы, как процедура, освещены подробно.

**Ключевые слова:** экономика, модернизация, личность, доход, налог, эффективность.

**Abstract.** In the article, the conceptual basis and criteria of economic efficiency of managing the operation of taxing the income of individuals at the current stage of economic liberalization and modernization in the Republic of Uzbekistan are researched. Also, in developed and developing countries, including the USA, specific features of taxation of legal entities and individuals, the procedure for calculating and paying to the budget the corporation tax from corporations, the mechanism of value added tax, the calculation and payment to the budget of excise tax and other local taxes and fees issues such as procedure are covered in detail.

**Key words:** economy, modernization, individual, income, tax, efficiency.

Қонунчиликка киритилган ўзгартиришга кўра, 2024 йилнинг 1 январидан бошлаб ўзини ўзи банд қилган шахсларнинг меҳнат фаолияти

натижасида ёки товарларни (хизматларни) реализация қилишдан олинган даромадларига ушбу даромадлар солиқ даврида юз миллион сўмдан ошган кундан эътиборан яқка тартибдаги тадбиркорлар учун белгиланган тартибда солиқ солиниши белгиланди.

Ўзини ўзи банд қилган шахслар — ўз ишини ўзи топиб, уни ўзи бажариш орқали даромад кўрадиган жисмоний шахслардир. Репетиторлар, энагалар, сантехниклар, электрчилар, сартарошлар, курьерлар, автомобиль ювувчилари, ҳунармандлар, фаррошлар, тикувчилар, дастурчилар ва яна кўплаб касб эгалари ўзини ўзи банд қилувчилар бўлишлари мумкин.

Мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланиш истиқболларида жисмоний шахслардан олинган солиқларнинг концептуал асослари Ўзбекистон Республикасида солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси вазифалари ҳамда солиқ тизими модернизациясининг кўшимча чоратадбирлари ижросидан келиб чиқиб жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш амалиётининг ҳозирги ҳолати, унинг муаммолари ва тортишувли масалалари ҳамда унинг самарадорлигини ошириш йўналишлари. Кишилиқ жамияти тараққиётининг барча босқичларида амал қилувчи ижтимоий иқтисодиёт концепцияси халқ турмуш фаровонлигини ошириш, камбағаллик ва кам таъминланганликнинг ўсишига йўл қўймаслик заруриятидан келиб чиқади.

Ўзини ўзи банд қилган шахслар юридик шахсларга хизматлар кўрсатишда (товарларни сотишда) электрон ҳисоб-китоб фактураларни тақдим қилиши ҳамда назорат-касса техникаси ва банк пластик карточкалари орқали ҳисоб-китоблар бўйича тўлов терминалларида фойдаланиши ҳамда тижорат банкларида ҳисобварақларини очган ҳолда фаолият юритишлари мумкин. Ўз навбатида, юқорида қайд этилган маълумотлар Солиқ кўмитасининг маълумотлар базасида ташқи манба маълумотлари асосида шаклланади. Шунга асосан, ўзини ўзи банд қилган шахсларнинг даромадлари юқорида қайд этилган маълумотлар асосида аниқланиш имконияти мавжуд.

Маълумки, ЯТТлар 5 нафаргача ходим ёллаган ҳолда фаолият юритишлари мумкин. Ўз навбатида, ходимни ёллаш бевосита иккита томон ўртасида тузиладиган меҳнат шартномаси асосида амалга оширилади ҳамда солиқ органларига ҳар бир ёлланган ходимларни мажбурий тартибда ҳисобга кўйишлари лозим бўлади. Шунингдек, ЯТТ зиммасида ҳар бир, яъни 5 нафаргача ёллаган ходимлари учун даромад солиғи ҳамда ижтимоий солиқ тўловини амалга ошириш мажбурияти юклатилган. Кирилган ўзгартириш ва кўшимчаларга асосан ўзини ўзи банд қилган шахсларнинг жами даромади солиқ даврида 100 млн сўмдан ошса, ЯТТга айланмайди. Фақатгина солиқ тўлаш мажбурияти ЯТТ сифатида белгиланади.

Шунга асосан, ўзини ўзи банд қилган шахслар ўз фаолиятида ёлланма ходимлар меҳнатидан фойдаланишга ҳамда тадбиркорлик субъектларига ёлланган ходим сифатида меҳнат фаолиятини амалга оширишга ҳақли эмас. Ўзини ўзи банд қилган шахс сифатида рўйхатга олинган фуқаро Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобига ишсизга тўланадиган

ишсизлик бўйича нафақани ҳамда касбга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малака ошириш даврида стипендияни ололмайди.

Ўзини ўзи банд қилиш тартибида меҳнат фаолиятини амалга ошириш натижасида олинган даромадларга жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи татбиқ этилмайди. Бунда ўзини ўзи банд қилган шахсларнинг меҳнат фаолиятидан ташқари олинган даромадлари Солиқ кодексида белгиланган тартибда солиққа тортилади.

Ўзини ўзи банд қилган шахс махсус мобиль илова ёки солиқ тўловчининг шахсий кабинети орқали рўйхатдан ўтади, бунда ўзини ўзи банд қилган шахс томонидан сўровнома тўлдирилади. Ижтимоий солиқ тўлаш ихтиёрий асосда амалга оширилади. Шунга асосан даромади 100 млн сўмдан ошган ўзини ўзи банд қилган шахслар ҳам йилига бир мартаба базавий ҳисоблаш миқдорининг бир баравари миқдорида меҳнат стажини ҳисоблаш учун ижтимоий солиқ тўлайди.

### **Халқаро тажриба**

Хорижий давлатларда ҳам ўзини ўзи банд қилган шахслар солиқ тўловчилар ҳисобланади. Мисол учун, АҚШ тажрибасида ўзини ўзи банд қилган шахслар олган даромадларидан солиқ тўлаш мажбурияти мавжуд. Яъни уларнинг қонунчилигига асосан даромадларидан 4 фоиз, агар ушбу даромадлар юридик шахс ёки хусусий тадбиркорларга кўрсатилган хизматдан олинган бўлса, 6 фоиз миқдорида профессионал даромад солиғи тўлашлари лозим бўлади.

Ўзини ўзи банд қилганлар чет эллик жисмоний шахслар ва юридик шахслар билан шартнома тузмасдан ишлашлари мумкин. Оммавий офертани қабул қилиш, электрон хабар алмашиш ёки, жумладан, электрон шаклдаги ҳисоб-фактуралар (инвойслар) ишлаш учун асос бўлиши мумкин. Бажарилган ишлар учун хориждаги норезидентлардан тўловларни Ўзбекистон банкларидаги ҳисоб рақамига хорижий валютада қабул қилиш мумкин. Бунда яқка тартибдаги тадбиркорлар ёки юридик шахслар сингари Ташқи савдо операцияларининг ягона электрон ахборот тизимида бу ҳақдаги маълумотларни киритишга ҳожат йўқ. Олинган маблағларни ўз банкида хорижий валютада нақд қилиб олиш ва ундан ўз эҳтиёжлари учун фойдаланиш мумкин.

### **Адабиётлар**

1. Барулин С.В., Ермакова Е.А., Степаненко В.В. Налоговый менеджмент. 3-е изд. – М.: Омега-Л, 2016. – 492 с.
2. Башкирова Н.Н., Сугрובה, Е. Б. Основы налогового консультирования / 3-е изд. / под ред Л.И. Гончаренко. - М.: Магистр, 2016. – 315 с.
3. Беспалов М.В., Филина Ф.Н. Схемы минимизации налогообложения / 3-е изд./ под ред. Д.В. Соловьевой. М.: ГроссМедиа, РОСБУХ, 2017. - 548 с.
4. Борьян Ю.Б., Зрелов А.П. Современные задачи и возможности налоговой политики // Налоги и налогообложение. - 2017. - № 1. - С. 17 - 19.

5. Гадоев Э. ва бошқ. Солиққа оид хатолар. – Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи, 1996. -128 б.;
6. Гадоев Э., Кўзиева Н. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш. –Т.: Ўзбекистон, 2013. – 281 б.;
7. Гатаулин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. – Т.: ДСҚ, 1996. – 241 б.;
8. Гончаренко Л.И., Осетрова Н.И. О новой дисциплине: современные тенденции в формировании налоговой культуры //Налоги и налогообложение. - 2016. - № 11. - С. 55 - 59.

## OILADA BOLA TARBIYASI TOIFALARI VA OQIBATLARI

*Nurbayeva Xabiba Botirovna*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*  
*“Pedagogika, psixologiya va tillar”*  
*kafedrasi o'qituvchisi*

*Sodiqova Robiya*  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi*  
*OMX fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Oilada farzand tarbiyasi, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiylilik, farzandlarni ota-onasiga bo'lgan munosabati, bolani barkamol inson qilib yetishtirishda oila va tashqi muhitning ahamiyatlari haqida va ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati to'g'risida fikr bildirilgan.

**Tayanch so'zlar:** tarbiya, e'tibor, ruhiy hotirjamlik, ota-ona mehri, bolaga bo'lgan ishonch, muvofiqiyat kaliti, past nazar, solishtirish,

**Annotation.** The article expressed an opinion about the upbringing of a child in the family, mental calmness in the family, sincerity, attitude of children to their parents, the importance of the family and the external environment in raising a child as a harmonious person, and the fullness of the parents' attitude towards the child.

**Keywords:** education, attention, peace of mind, parental love, trust in the child, the key to success inferiority complex, comparison.

**Аннотация.** В статье дается представление о воспитании детей в семье, душевном спокойствии, искренности в семье, об отношении детей к своим родителям, о значении семьи и внешней среды в воспитании ребенка гармоничным человеком, об отношении родителей к ребенку.

**Ключевые слова:** воспитание, внимание, спокойствие, родительская любовь, доверие к ребенку, залог успеха, комплекс неполноценности, сравнение.

Daraxtdan meva olaman desang uni nixollik davridan parvarish qil.

Bolalar! Naslimizning davomchisi, porloq kelajagimizning mitti yulduzi. Ular tufayli hayotimiz mazmunlidir. Bu mitti yulduzlarning kelajakda yorqin porlashi ota-onaning bergan tarbiyasi va mexriga bog'liq. Har bir ota-ona farzandli bo'lishgach u uchun jonini va borini berishga ham tayyor bo'ladi. Lekin bu kamlik qiladi deb o'ylayman. Asosiysi unga beriladigan tarbiya va e'tiborga bog'liqdir. Ular ota-onalarning parvarishiga, mehriga muhtoj bo'ladi. Bolani go'dakligidan to'g'ri tarbiya berish lozim. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki ona homiladorlik davrida ko'p kitob o'qib bilim olsa va umuman asabiylashmasa tug'ilgan farzandi kelajakda zo'r o'qiydigan biznesmen, iqtisodchi yoki olim bo'lish ehtimoli juda yuqori ekan. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch-oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro'sining yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oila kattalari o'rtasidagi birlikning saqlanishibola shaxsini mehnatga

tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish, qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi kuzatishlarni olib boorish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Yaxshi ota yoki ona bo'lish uchun har doim g'azblanish kerak bo'lganida vazmin bo'lishing, xafa bo'lishing zarur maxalda esa tabassum qilishing kerak bo'ladi. Shu bois ham, ota-ona bo'lish katta maxorat. (Den Pirs) Bolani kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ota-onasiga bog'liq. Bolani yoshligidan, qattoqlikda tarbiyalash noto'g'ri. Qat'iy tartib bolani zeriktirib psixologiyasiga juda qattiq tasir qiladi. Misol uchun bola ertalab voqtli uyg'onishi keyin maktabga borib qaytishi va maktabda kim bilan qancha va qanaqa munosabatda bo'lishigacha rejalashtirilgan bo'lsa bola hayotdan zerikib uni shunday tasavur qiladi. Bu esa noto'g'ri. Bolaligim beboshligim demagan bekorga xalqimiz. Yoshligidan uni kitobga, tabiatga mehrlil Vatanga muhabbat tuyg'usida ulg'ytirish kerak.

Bolani psixologiyasiga ta'sir qiladigan so'zlar qatoriga:

Sen bu ketishingda hech kim bo'lmaysan.

Haqoratlash.

Bolani hayvonga o'xshatish.

Qiziqishlarini e'tiborga olmaslik.

Qo'pol muomulada bo'lish.

Solishtirish yani boshqa bolalar undan yaxshiroq ekanligini uqturish.

Va shu kabi so'zlar bolaga yomon ta'sir qiladi.



*(Yana ikkimi?) nomli surat.*

Bu surat bolalar uchun emas, bu aniq. Bu kattakr uchun chizilgan surat. Bolani qanday kutib olmaslik kerakligini tushunishimiz uchun yaqqol namuna. Kuchukcha bolani kutib olganiga ahamiyat berdingizmi? Biz ana shunday munosabatda bo'lishni o'rganishimiz kerak. Bola nima bilan kelgani, qanday baho

olgani, "ikkimi" yoki "beshmi" kuchukchaga umuman farqi yo'q. Bolaning qadri uning bahosi bilan o'lchanmasligi lozim. Baho bu- baho! Kelajakda shu ikki olib kelgan bola kata kashfiyotlar qilishi, uch baho olgani olim, ministr yoki zo'r shifokor bo'lishi mumkin. Bir narsani tushunishimiz kerak, bolani kelajakda kim bo'lishini raqamlar emas, bizning unga bo'lgan munosabatimiz hal qiladi.

Demak, bolalarimizni tarbiyalashda har bir narsaga etibor berishimiz kerak. Kanada psixologi A.Banduraning fikricha, bola ilk davridadagi shaxsiy muoffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorgarligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi. Bola o'zi uchun idial inson qilib o'zgalarni emas ota-onasini ideal inson sifatida ko'rishi kerak. Avvalambor bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o'rinda turadi. Onamiz bizni odobli, tartib-intizomli, mehribon, ozodalikka rioya qiladigan, kattalar va kichiklarga hurmatda bo'ladigan qilib tarbiyalasa, otamiz esa bizni ma'suliyatli, qat'iyatli, kuchi, o'ziga ichonadigan, sabr bardoshli qilib tarbiyalaydi. Bola boshqa muhitga tushib qolganida kattalarga hurmati dunyoqarashi har qanday vaziyatda o'zini tuta ola bilishi oilada ko'rgan tarbiyasini yuzga keltirib chiqaradi.

Bola tarbiyasi qonuniyatlarini bilmagan vaqtda bola tarbiyasiga e'tibor bermaga ota-onalarbir kuni pand yeydilar. Shunday hollor yuz bermasligi uchun bolaning dunyoga kelishi bilaoq uni to'g'r tarbiyalash pedagogika fanining shu sohadagi tavsiyalariga e'tibor berishimiz lozim.

Xalqimiz " Har kim ekkani o'radi, bug'doy ekan bug'doy, arpa ekan arpa o'radi" degan maqol bor. Demak bola ham ota onasidan olgan tarbiyasiga qarab o'sadi.

Bolaning hayot yo'li boshlanadigan boshlang'ich qadam jamiyat bo'lib, bola dastavval shu yerda insonni ko'radi. U haqida tushunchga ega bo'ladi. Oilada uning hulqi, ko'nikmalari, odatlari shakllanadi. Oila unga uzluksiz ta'sir ko'rsatib uning faoliyatini nazorat qilib boradi. Buning sababi faqat bolaning ko'p vaqti oilada o'tishdagina deb ko'rsatish uchun to'g'ri emas.

Oilada bolaning yuragiga yaqin tarbiyachidir. Bola ota-onasiga ishonadi. Shuning uchun ham ma'lum davr mobaynida ota-ona bola uchun turmush haqida fikr yurituvchi kishilarga axloqiy baho beruvchi yo'lboshchi bo'lib xizmat qiladi.

Oila va uning tarbiyaviy funksiyalari.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'yib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qy usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jaroyanda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faoil ishtirokchi ekanligini ham unutmashligi lozim.

Tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorligidagi faooliyat hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.



Ota o'z farzandini tergab tarbiyalasa, uning fe'l yo'rig'i yaxshi bo'ladi, ota va onaning yuzi yorug' bo'ladi" "Ota o'z farzandini bilimli idrokli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, uni doimo tergab tarbiyalashi kerak, buning tadbiri mana shu. Ota farzandini kichikligidan nobakor qilib qo'ysa, farzandda gunoh yo'q, barcha ayb otaning o'zidadir. Ota farzandini o'rgatib, tergab tarbiyalasa, ular ulg'aygach, o'g'lim- qizim deb suyunsa arziydi. Agar nazorat qilguvchi farzand bo'lmasa, bunday farzand yaramas va nobakor bo'ladi. Bunday farzanddan umidingni uzaver".

Yuqoridagi fikrlarda asosiy e'tibor bolaning jismoniy, emotsional, intellectual rivojlanishi zarur bo'lgan ehtiyojlarni yetarli darajada va sifatli ta'minlash kabi ota-onaning har tomonlama yordamiga qaratiladi. Ota-ona farzandining intizomli bo'lishi xulq atvoridagibuzilishning oldini olishga, shuningdek, uning yutuqlari bilan qiziqishi o'z-o'zini anglashga asos bo'ladi, deb hisoblaydi.

Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g'oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan baxobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida sog'lom avlod tarbiyasi bilan bog'liq masalalarga alohida o'rin berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi.

Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'nalariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Vasila Karimova "Psixologiya", Toshkent, 2000.
2. Foziev E. "Umumiy psixologiya" 1-kitob, Toshkent, 2004
3. "Psixologiya atlas" M.Gomezgo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lug'ati, Toshkent 1998

5. Karimov I.A., Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., 1997; Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, T., 1992; G'aybullayev N. R. va boshqa, Pedagogika, T., 1999.
6. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash.

---

## USE OF MUSICAL WORKS IN CULTURAL EVENTS

*Husan Jumayev*

*Termiz State University Department of  
"Music Education". The sphere of culture  
and art fundamentals of organization  
and management science teacher*

**Annotation.** This article provides detailed information on the methodology of music selection for public holidays and performances, and the role and importance of music in the management of daily and calendar holidays. In addition, the rhythm in music - the timely organization of the sound of a musical piece, and the important aspects and function of conditional music with a plot at the event are analyzed in detail.

**Key words:** holiday, rhythm, theatricalization, plot music, artistic atmosphere,

Another effective means of mass celebrations and performances is music. It is hard to imagine today's celebrations and performances without music. Music helps create a festive spirit of the holiday and increases its emotional impact.

In public celebrations and performances, music can be plot, illustration and background, as in the theater. As in the theater, "creating the mood can reveal the inner world of the character or reflect the action. In addition, here it appears in an associative role as a symbol of some major historical event. Music (together with plastic, lights and impressive tools) helps to reveal the artistic image of individual episodes. Music can take part in the dialogue, acting as a participant in public celebrations and performances.

Recorded music, songs, monologues, dialogues are transmitted through magnetic tape recording, music, numbers one after the other. acoustics depends on the work of the sound director. One of the functions of music is to create an atmosphere of action.

Music, due to its qualities - emotionality, depth, brightness, expressiveness, timbre color, is a special background for action, on the one hand, creating conditions for a deeper perception of the content of a separate fragment, episode by the audience, and the event, on the other hand, to the performer helps to focus more deeply on the images of realization Skillful use of this power of music can have a great emotional impact on the audience.

Music can not only create an emotional image and serve as a unique image of action. His important task is to participate in disputes and conflicts, because he himself is the bearer of them. An example of this is the theme of good and evil in the works of classical and modern composers. This quality of music can also be used in the musical design of cultural and recreational programs, since the presence of conflict is the basis of the script. In one case, music can only be a carrier of conflict, and in another case, it can intensify conflicts and lead to a climax. Then he himself becomes a dramatic factor.

Live performance is rarely used in public performances due to technical difficulties.

Musical decoration is an integral part of creating a cultural and recreational program. The role of music in artistic and figurative solutions is really big. Music is able to fully convey feelings and thoughts. The range of these states and experiences expressed through music is endless. From all kinds of creative images, whether it is love scenes, festive scenes full of joy, sad and sad sounds, all these are included in the musical design of any concert, program, folk festival, festival, etc. finds the opposite. Knowing the characteristics of music, its functions, the organic combination of phonogram and live sound is necessary for the directors of any cultural and recreational programs to create a more effective artistic and emotional impact on the audience through the means of musical art.

Each cultural recreation program has its own characteristics and requires a certain musical solution in accordance with the venue. At festivals, carnivals, ceremonies and public holidays, musical prologues are theatrical processions of participants, marches - parades of duhovka orchestras, parades of amateur artists, etc. Music should quietly participate in the creation of the general picture of the public performance and reveal its aesthetic and dramatic sound more widely, so that the level of its impact is stronger and faster, so that the number of people who listen to it without stopping to hear it. At any public holiday or public event, he should independently interpret the happenings, reveal the content and theme of the work in his own way, help develop the development of the events, and thus actively influence the audience's perception. Clear and vivid musical imagery always helps the action. The music involved in the production can affect the audience emotionally and fully only when the expressive and figurative aspects of all its elements are fully revealed in harmonic unity: tone, rhythm, dynamics, timbre. Individual tones are able to recreate the subtlest shades of different emotional states: joy, sadness, volitional impulses and aspirations.

At public holidays, these factors are very important for creating a general mood, conveying the thoughts, feelings, and experiences of the hero. A musician working on the musical design of a performance should take into account the modal side of the music, characteristic modal turns, in order to reflect the national color in the music. When choosing music for a theater performance, it is necessary to find a tonality of sound that matches the nature of its stage action.

The expressive importance of rhythm in music cannot be overestimated. Rhythm, no less than melody, closely connects the content of music with the surrounding reality. Rhythms convey the spiritual life of a person, the intensity of his emotional world, and the emotions he experiences. Rhythm is perceived by the listener much more easily than other elements of musical expression.

Also, plot music is widely used in public celebrations, it plays an important role in describing the place and time of action. In this case, music is an accessory, an attribute of an event, a daily or historical environment, a situation that allows you to create a certain flavor of the holiday. The main essence of such musical

numbers is that all of them are an integral part of a separate event or sometimes a situation.

In addition, if its national character is manifested in music (intonation, rhythm, timbres), it becomes one of the necessary elements of authenticity, the reality happening on the stage. Plot music is very widely used in theater productions as a national feature of the characters, as well as a setting for the action. Songs are mainly used for this. Various regional songs and melodies are often used to create the character of the scene.

The plot music also helps to create a certain atmosphere for the action. The quality of the music itself - emotional accuracy, depth, brightness, expressiveness, timbre - plays a big role in this.

So, plot music:

- character description;
- showing the place and time of action;
- creation of atmosphere, mood of stage movement;
- talks about an action that is not visible to the viewer.

It is much more difficult to include traditional music in holidays, especially in the plot. His "traditionalism" may contradict the reality of life shown on stage. Therefore, traditional music always requires a reliable internal justification. At the same time, the expressive possibilities of such music are very wide, for which various orchestral, as well as vocal and choral forms can be used.

#### References

1. B.S. Saifullayev, V.K. Rustamov. Ability to organize cultural events. - T.: "Science and technology", 2016, 180 pages.
2. F. Ahmedov. Basics of directing public holidays T- "Alokachi" 2008, 424 p.
3. Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li. (2024). Performance In Folk Instruments (Gijjak Kobuz Bass). International Journal of Formal Education, 3(4), 66–68. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2492>
4. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 76-79.
5. Choriyev , B. (2022). G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573>
6. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 67–73. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/20>
7. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovoqli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3(4), 776-780.

8. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS. EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
9. Choriyev, B. (2021). umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishdagi kamchiliklar va muammolar. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>.
10. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI. In REPUBLICAN SCIENTIFIC CONFERENCE MODERN EDUCATION AND UPBRINGING PROBLEMS, SOLUES AND PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
11. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(80), 83-87.
12. Xakimov, O. B. (2022). FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATIDA QO'SHIQ JANRINING O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 23–28. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/571>
13. Xakimov Orifjon Boboramazonovich. (2024). PERFORMANCE SKILLS AND ARTISTRY IN SURKHAN OASIS EPIC TRADITIONS. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 24, 45–50. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/982>
14. Xakimov, O. . . (2024). The Formation of the Art of Surkhandarya Musical Performance. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(4), 254–259. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2019>
15. Kholmatov, S. (2024). FORTEPIANO CHOLG'U ASBOBI TARIXI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(3), 22–24. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/28561>

## CHOLG'ULARNING PAYDO BO'LISH TARIXI HAMDA HOZIRGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

*Xidirov Kamil Achilovich*

*Termiz davlat universiteti*

*“Musiqqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Cholg‘ularning paydo bo‘lish tarixi hamda hozirgi kundagi o‘rni va ahamiyati” mavzusi asosida qisqacha ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: Musiqqa, san’at, tor, pipa, banjo, lyutnya, afg‘on rubobi, nay, sunray, hushtak, doira, nog‘ora.

Hozirgi kunlarda san'atimiz, ko'hna madaniyatimiz tarixini o'rganish va unga qiziqish tobora oshib bormoqda. Tarixchilar, san'atshunos olimlar va qadimshunoslarning bu yo'nalishlaridagi xizmatlari tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy madaniyatini yorituvchi qator adabiy va yozma manbalar yaratildi. Musiqiy cholqu ijrochiligi milliy xalq cholg'ularida sozandachilik san'ati ham boshqa san'at turlari singari ko'p yillik tarixga egaligi oydinlashadi.

Arxeologik qazilmalaridan topilgan tarixiy obidalar, adabiy va yozma manbalar qadim-qadimdan turli xalq cholg'ulari mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Moddiy madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari, kitob miniatyuralaridagi tasvirlangan xilma-xil sozlar, cholg'u ijrochilik san'ati qadimyiligini isbotlab, mavjud ma'lumotlarini yanada to'ldiradi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra rubobga o'xshash sozlar ko'pchilik xalqlar orasida uchratish mumkin. Tuzilishi, yasalishiga, ijro uslublarini hisobga olgan joy-joylarda mavjud bo'lgan cholg'ular o'zgacha nomlangan turli xalqlar orasida rivojlangan cholg'ularning ayrimlarini misol tariqasida ko'rsatib o'tishni lozim.

Tor – 6 ta torli mizrobli chertma torli soz. Ozarbayjonda, Armanistonda, qisman O'zbekistonda ham keng rivojlangan cholg'u.

Pipa – Mizrobli chertma torli cholg'u - Lyutnya tipidagi, rubobga o'xshash soz. Yaponiya, Koreya, Vetnamliklardan taraqqiy etgan sozlardan biridir.

Banjo – Torli, mizrobli chertma torli cholg'u. Afrikaliklarda keng rivojlangan cholg'ulardan biri.

Afg'on rubobi - 5 ta torli, mizrobli, Afg'onistonda, Tojikistonda, O'zbekistonda keng rivojlangan cholg'ulardan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda shunday ta'kidlangan – “Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba yoshlarga mustaqillik g'oyalariga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot

g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish dolzarb vazifamizdir".

Shunday ekan, hozirgi oliy dargohlarda ta'lim olayotgan har bir talaba davr bilan hamnafas holda ta'lim va tarbiya sohalariga oid innovatsion texnologiyalardan, jahon ta'lim standartlariga mos ravishda bilim olishlari ko'zda tutiladi.

Milliy o'zbek cholg'ularining yaratilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Dastlabki musiqa, cholg'ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan deb taxmin qilinadi. Musiqa cholg'u ijrochiligida eng avvalo o'rta zarbli cholg'u sozlari paydo bo'lgan. Sababi qadimgi mehnat qo'shiqlari ishning ritmik tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan. Keyin shovqinli cholg'ular paydo bo'lgan. Keyinroq esa xalq ustalari tomonidan qamish bambukdan nay, surnay va naysimon hushtaklar yasaganlar. Ustalar tomonidan esa do'mbira, shiqildoqlar, chiltorlar - arfa va doyralar yasalgan.

Vaqt o'tishi bilan bu cholg'ular yanada takomillashib, ko'p yo'lli, shuningdek zamonaviy ko'p teshikli naylar yuzaga keldi. So'ngra torli-mirzobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'ldi. Ulardan saroy ayonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarda foydalanildi.

Milliy o'zbek xalq cholg'u sozlari shakllanishda davom etib, ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi nay, qo'shnay, surnay, do'mbira, tanbur, rubob, dutor, g'ijjak, chang, doyra, nog'oralar an'anaviy shaklda bizgacha yetib keldi. Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoning g'arbiy viloyatlarida Parfiyona, sharqda esa Grek-Baxtriya davlatlari tashkil topdi. Eramizning V asrida O'rta Osiyoning janubiy qismida Kushon shoxligi tarkib topdi. Kushon sulolasi hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasida shaharlar yuksaldi, madaniyat va san'at gullab -yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'u sozlari yaratilishiga tarixiy sharoitlar yuzaga keldi.

Quldorlik tuzimi davrida Maroqand, Niso, Tuproq qal'a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan arxeologik qazilma ishlari chog'uda badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil milliy cholg'u sozlarining tasvirlari topildi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksaklik bilan birga cholg'ular ham takominlashdi. Arxeologik qazilmalar natijasida Markaziy Osiyo madaniyatini, xalq milliy cholg'u sozlarini o'rganishda qimmatli malumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: rubobsimon cholg'u sozi, nay va shu kabi cholg'u asboblarini chalib turgan mashshoqlar tasvirlangan. Ayratomdan topilgan sopol haykalchalar qimmatlidir. Ularda turli xil musiqa cholg'ulari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, do'mbirasimon cholg'u asbobi, nay, surnay, doyrasimon cholg'u asboblarida mashq qilayotganliklari tasvirlangan.

### Foydalanilga adabiyotlar

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., «Ma'naviyat», 2008.

2. Yu.Rajabiy. «O'zbek xalq musiqasi». I-V jildlar. T., 1955-1959.
3. Yu.Rajabiy. «Shashmaqom». 1-VI jildlar. T., 1965-1975.
4. F.M.Karomatov. «Uzbekskaya instrumentalnaya muzika». T., 1972.
5. F.M.Karomatov. «O'zbek xalq musiqa merosi». T., 1978, 1-kitob.
6. A.Petrosyans. «Instrumentovedenie».
7. Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li. (2024). Performance In Folk Instruments (Gijjak Kobus Bass). International Journal of Formal Education, 3(4), 66–68. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2492>
8. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 76-79.
9. Choriyev , B. (2022). G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573>
10. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 67–73. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/20>
11. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozi orkestr va ansambllarning tashkil topishi. Science and Education, 3(4), 776-780.
12. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS. EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
13. Choriyev, B. (2021). umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishdagi kamchiliklar va muammolar. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>.
14. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI. In REPUBLICAN SCIENTIFIC CONFERENCE MODERN EDUCATION AND UPBRINGING PROBLEMS, SOLUES AND PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
15. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(80), 83-87.

## O'RTA OSIYODA MUSIQA CHOLG'U ASBOBLARINING PAYDO BO'LISHI

*Hamidov Shermamat O'roqovich*

*Termiz Davlat Universiteti*

*"Musiqqa ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalqining musiqa madaniyati uzoq o'tmishda ma'lum bo'lganligi va musiqa cholg'u asboblarning paydo bo'lgan davri haqida so'z yuritilgan. Minatyura asarlaridan musiqiy choig'ular uzoq o'tmishda mavjud bo'lgani va turli xalqlar o'rtasida muloqot vositasi bo'lganligini isbotlaydigan manbalar berilgan. XVI-XIX-asrlarda o'zbek musiqasining taraqqiyotiga o'zining musiqaga oid asarlarni yozib qoldirgan allomalarning ijodlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizl, sbizg'a, ud, Lyutnya, cholg'u, qonun, ud, rud, shemani, (musiqor) chag'ona, chiltor, burg'u, karnay, arfa.

Halq cholg'u asboblari, ma'lumotlarga qaraganda juda qadim zamonlarda, eramizdan avvalgi XIII ming yillikda paydo bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Cholg'ulardan dastlab urma zarbli cholg'ular paydo bo'lgan, chunki eng qadimgi mehnat qo'shiqlari, ovga chiqishlar usul (ritm) tuzilish jihatidan bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan. Keyinchalik shovqinli musiqa asboblari paydo bo'ldi. Ijrochilar qarsak chalib, usul (ritm) ni ta'kidladilar, shovqinli cholg'ular ta'sirini kuchaytirdilar. Keyinroq halq ustalari tomonidan qamish va bambuk poyasidan surnay, hushtak, yana bir oz o'tgach esa nay, naysimon xushtaklar, shiqildoqlar, chiltor (arfa) yasaldi. O'sha paytdagi nay cholg'u asboblari hozirgi zamon zamonaviy ko'p teshikli naylardan bir oz farq qilgan. Vaqt o'tib, ushbu cholg'ular takomillashib, ko'p yillik naylar yuzaga keldi, so'ngra torli-mizrobli va torli-kamonchali musiqa cholg'ulari paydo bo'la boshladi. Ulardan saroy a'yonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanilgan. Qadimgi Sharq madaniyati quchog'ida o'zbek halq cholg'u asboblari shakllandi. Ular ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos xususiyatlarini, tovush tusini saqlab qoldi. O'ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g'ijjak, qobizlar an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida O'rta Osiyoni G'arbiy viloyatlarida Parfiyon(a), Sharqda esa Grek Baqtriya Davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O'rta Osiyoning Janubiy qismida qudratli Kushon shohligi tashkil topdi. Mahalliy Kushon sulolasi ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi ularoq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg'ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi. Quldorlik jamiyati O'rta Osiyo halqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo'ldi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg'u asboblari ham takomillashdi. Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S. L. Tolstov, V. A. Vyatkin, M. V. Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O'rta Osiyo madaniyatini, shu

jumladan xalq cholg'ularini or'ganishda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay rubobsimon cholg'u, hozirgi doiraga o'xshash do'mbra, nog'ora va shu singari cholg'u asboblari chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproq qal'a, Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ularda turli xil musiqa asboblari: Lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg'u, qonun, ud, rud, shemani, (musiqor) chag'ona, chiltor, nay, burg'u, surnay, karnay, doirasimon cholg'ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma'lum. Bayramlar ko'pincha yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Osiyoda "Navro'z", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg'u ansambllari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tasavvur qilish qiyin. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va chindavul kabi urma zarbli musiqa asboblari keng qo'llanilgan.

Feodalizm davrida arab istilosi O'rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazdi. VII-VIII asrlarda arab xalifaligida tirik jonzotni tasvirlashni taqiqlovchi, islom dinini yoyilishi, devoriy sur'atlarni shu jumladan musiqa cholg'ulari tasvirining barham topishiga olib keldi. IX asrga kelib Buxoro yirik madaniy markazga aylandi va ayni paytda yakka navoz, ansambl musiqachiligi va raqsni o'z ichiga olgan vokal-cholg'u musiqa turkumlari rivojlandi. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv, maxsus musiqa ustaxonalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz shogird an'analari qaror topib rivojlandi. Musiqa cholg'u asboblari ham shakllandi. Asboblarning yangi namunalari kashf etildi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqa cholg'usini jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Forobiyning (873-950) "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa al-kabir"), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob um-shifo") qomusidagi "Musiqa haqida risola", Al Xorazmiyning X asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiy kitobi", Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Safiuddin Urmaviy istedodli ud cholg'uchisi Urmiya shaxrida tug'ilgan (Ozarbayjonlik) mashhur xonanda, uning eng katta yutug'i "Modius" ladning mukammal yo'nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn Zaylning VI asr "Musiqa xaqida to'liq kitobi" va "Kitob ul-kabi fil-musiqiy" uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobdir. U yangi usulni, musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy XV asr, Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqa ilmda ohanglar to'plami" ("Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy") risolasida

musiqa haqidagi ta'limotni kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.

Al-Husayn XV asr asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqa asbobi dutor haqida ma'lumot bergan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqasi asboblari ichida eng yoqimli deb hisoblagan. Al Forobiy (IX asr) mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg'u nay asbobini, torli mizrobli cholg'u tanbur va ud musiqa asboblarini juda zo'r mahorat bilan ijro etgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u "Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg'ular bor", deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida halq cholg'ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi. Lyutnya-torli mizrobli cholg'usi o'sha davrda eng keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u asbobi ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkazorti xalqlari orasida, O'zbekiston va Tojikiston cholg'uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelayapti. (Zamonaviy ud namunalari T.D.K. ning sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud)

"Musiqasi xaqida katta kitob" da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya'ni (Dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deydi.

Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish uslubiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali, tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay, yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylanma naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uning Vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, Ozarbayjonliklar nay (juda kam uchraydi), qirg'izlar uo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi) o'zbeklar nay deydi.

Olim va mashhur cholg'uchi Forobiy surnay musiqa asbobi haqida bir qator ma'lumot beradi. Uning o'rik yoki tut daraxtidan ishlanganligi va o'sha davrda keng tarqalgan musiqa asbobi ekanligi haqida to'xtalib o'tadi.

Forobiy, shuningdek, Dunay, (Mizmar) ni ham alohida tilga oladi. Dunay hozirda qo'shnay yoki turkman cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamishdan yasalgan cholg'u) ga o'xshatadi.

Forobiy o'z risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshash bo'lib, pardalari dutor pardalariga o'xshagan, dastasi ancha uzun bo'lganligini, asosiy qismini yog'och dekali pastki qismi esa charmdan ishlangan, dekali musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Shuningdek, musiqa asbobi changni ham ta'riflaydi. O'sha vaqtgacha changning 15 ta tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki

oktava oralig'iga teng tovush qatorga ega deydi. Yana Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan "Cholg'u asboblari haqida kitob" ida olim tanbur, rubob, chang, cholg'u asboblari udda chalayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga, uyg'un jo'r bo'lish, uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'u asboblari o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belyayev V. «Muzkalnoye instrument Uzbekistana» Moskva., 1933 g.
2. Абу Наср Фараби. Поэтика. –Ташкент.Фан. 1978.
3. Akbarov II. «Musiqalug'ati» Toshkent «San'at» nashriyoti., 1997 y.
4. Ўзбек musiqasi tarixi. Toshkent, "Ўқитувчи", 1981.
5. Кайкавус. Қобуснома. Тошкент. "Ўқитувчи", 2006.
6. Абдукаримов М. "Чолғушunoslik" -Тошкент 2005
7. Asqarov A. «O'zbekiston xalqlari tarixi» Toshkent., «Fan» 1992 y.
8. Bajenova «Pedagogik izlanish» Toshkent., «O'qituvchi» 1990 y.
9. Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li. (2024). Performance In Folk Instruments (Gijjak Kobus Bass). International Journal of Formal Education, 3(4), 66–68. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2492>
10. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 76-79.
11. Choriyev, B. (2022). G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573>
12. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 67–73. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/20>
13. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozi orkestr va ansamblarning tashkil topishi. Science and Education, 3(4), 776-780.
14. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS. EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.
15. Choriyev, B. (2021). umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishdagi kamchiliklar va muammolar. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>.
16. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI. In

REPUBLICAN SCIENTIFIC CONFERENCE MODERN EDUCATION AND UPBRINGING PROBLEMS, SOLUTIONS AND PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.

17. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), 83-87.

## MALAY TILIDA O'ZLASHMA SO'ZLARNING EKSTRALINGVISTIK VA LISONIY OMILLAR ASOSIDA VUJUDGA KELISHI

*Toshpulatova Zarnigor*  
*Toshkent davlat sharqshunoslik*  
*Universiteti, o'qituvchi-stajori*

**Annotatsiya.** Ta'kidlash joizki, tilshunoslikda o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Malay tili o'zining ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug'at tarkibini o'z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko'ra, o'z qatlam negizlari asosida yangi so'zlar yasaladi, mavjud so'z ma'nolari kengaytiriladi, ba'zi so'zlarga qo'shimcha vazifalar yuklanadi, adabiy tilga xalq shevalaridan turli davrlarda, ehtiyojga ko'ra, so'zlar qabul qilinadi. Boshqa tillar kabi malay tili lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o'z ichki manbalarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, malay tili uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina kifoya qilmaydi. Malay tili lug'at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o'ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o'zaro ma'lum munosabatda bo'lishi tabiiy holdir. Bunday munosabat aloqada bo'lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug'at tarkibida ma'lum izlarni qoldirishi mumkin. Malay tiliga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan va eng ko'p o'zlashmalari mavjud bo'lgan tillar: *sanskrit, arab, ingliz va portugal* tillari hisonblanadi.

**Kalit so'zlar:** o'zlashma so'zlar, til tarixi, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, qadimgi mlay tili, o'rta davrlar malay tili, yangi zamonaviy davr malay tili.

**Аннотация.** Следует отметить, что в языкознании большое значение имеют заимствованные слова. За время своего многовекового исторического развития малайский язык обогатил и усовершенствовал свой словарный запас за счет внутренних источников. Согласно этому закону на основе их пластов создаются новые слова, расширяются значения существующих слов, некоторым словам присваиваются дополнительные задачи, из народных диалектов в разные периоды по мере необходимости изменяются литературные языки. Принимаются. Как и в других языках, внутренние ресурсы являются важной основой для обогащения малайского словарного запаса. Однако, как ни один язык в мире не опирается на собственные внутренние ресурсы, так и малайскому языку недостаточно только собственных слов, его богатства и возможностей. Внешние источники играют важную роль в обогащении и совершенствовании малайского словарного запаса. Вообще ни один язык не может жить в чистом состоянии. Для разных языков естественно иметь определенные отношения друг с другом в разных исторических условиях. Такое отношение может оставить определенные следы в развитии соприкасающихся языков, особенно в их словарном запасе. Санскрит, арабский, английский и португальский —

языки, оказавшие наибольшее влияние на малайский язык и имеющие наибольшее количество адаптаций.

**Ключевые слова:** заимствованные слова, история языка, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, древний малайский язык, средневековый малайский язык, современный малайский язык.

**Abstract.** It should be noted that the process of acquiring words in linguistics is of great importance. During its many centuries of historical development, the Malay language enriched and improved its vocabulary at the expense of its internal sources. According to this law, new words are created based on the foundations of their layers, the meanings of existing words are expanded, additional tasks are assigned to some words, literary language is changed from folk dialects in different periods, according to need, words are accepted. Like other languages, internal resources are an important basis for the enrichment of Malay vocabulary. However, just as no language in the world relies on its own internal resources, Malay language is not enough only with its own words, its wealth and capabilities. External sources play an important role in enriching and improving Malay vocabulary. In general, any language cannot live in a pure state. It is natural for different languages to have certain relations with each other in different historical conditions. Such an attitude can leave certain traces in the development of the languages in contact, especially in its vocabulary. Sanskrit, Arabic, English and Portuguese are the languages that have had the greatest impact on the Malay language and have the largest number of adaptations.

**Keywords:** borrowed words, language history, linguistic factors, extralinguistic factors, ancient Malay language, medieval Malay language, modern Malay language.

Ma'lum bir tilning taraqqiyot bosqichida bo'lgan o'zgarishlar, shu jumladan so'z o'zlashish jarayinini tahlil qilishimiz uchun ham ushbu tilning etimologiyasiga nazar tashlashimiz zarurdir. Malay tilining etimologiyasiga nazar tashlar ekanmiz, avvalo ushbu tilda so'zlashuvchilar tarixini bilishimiz zarur. Malay xalqlarining kelib chiqishi hali ham noaniq, ammo Xendrik Kern (Gollandiyalik antropolog) va Robert fon Xayn Geldern (Avstriya) kabi ba'zi yevropalik antropologlarning izlanishlari va taxminlari qadimgi malay jamoasining kelib chiqishini nazariy tahlil qiladi. Ularning nazariyasida malaylar avstroneziyalik guruhlardan, ya'ni Xitoyning Yunnan provinsiyasidan kelgan odamlar guruhidan kelib chiqqani, keyinchalik ular odamlarning bir joydan ikkinchi joyga harakatlanishi natijasida to'lqinlarida ko'chib, oxir-oqibat mintaqani egallab olganligi aytilgan.

Ular Proto-malaylar nomi bilan mashhur bo'lgan va miloddan avvalgi 2500 yillarda sodir bo'lgan birinchi to'lqin natijasida malay guruhlarning ko'chishi sodir bo'lgan. Miloddan avvalgi 1500 yilda Malay-Deutro nomi bilan mashhur bo'lgan ikkinchi to'lqin paydo bo'ldi. Ular Janubi-Sharqiy Osiyodagi serhosil qirg'oq hududlari va pasttekisliklarda yashaydilar. Ularning mavjudligi odamzot protomayzaliklarga sabab bo'ladi, chunki Odam Atoning olmasi, Mahmeri, Jaxut,

topilmalar, Biduanda va boshqa ba'zi kichik guruhlar o'rmon hududlari va ichki qismlarga ko'chib ketishgan. Malay-Deutro guruhi hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan Malay jamoasining ajdodlari deb aytiladi.

Tilshunoslar malay tili rivojlanishini uchta asosiy bosqichga ajratdilar, ya'ni:

- a. qadimgi malay tili ( bahasa melayu kuno)
- b. klassik malay tili ( bahasa melayu Pertengahan)
- v. hozirgi zamonaviy malay tili ( bahasa melayu moden).

#### *Qadimgi malay tili*

Qadimgi malay tili VII-asrda XIII-asrda Srivijaya shohligi davrida ishlatilgan. O'sha paytda qadimgi malay tili tabiatining tilining sodda va tashqi ta'sirlarni qabul qilish oson bo'lganligi sababli tezda davlat boshqaruv tiliga aylangan. Malay tili insonlarning tabaqalanish tartibiga bog'liq bo'lmaganligi bois odamlar orasida juda tez yoyila boshlagan. Malay tili Java tiliga nisbatan sodda tizimga ega bo'lgan. Malayziyaliklar osha paytda hinduizm diniga e'tiqod qilganliklari bois qadimgi malay tilida Sanskrit tilining juda ham ko'p unsurlarini uchratishimiz mumkin. Sanskrit tili olimlar tili hisoblanadi va zodagonlar tomonidan foydalanilgan. Sanskrit tilining malay tiliga ta'siri haqida malayziyalik adabiyotshunos va tanqidchi olim Ismail Hussein shunday deydi: "*Sanskrit tili orqali malay tili o'zining birinchi evolutsiyasini boshdan kechirdi, avvalari oddiy xalq tili bo'lgan malay tili o'zining ilm fan, adabiyot, din va falsafa sohasida rivojlanish qadamini boshladi.* Malay tili ham vaziyat va ehtiyojlarga qarab egiluvchan xususiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi malay tiliga mansub qo'lyozmalarni VII asrdagi Pallava tomonidan yozilgan tosh bitiklarda ko'rishimiz mumkin:

- a. Palembangdagi Kedukan Bukitdagi yozuv toshi (mill 683)
- b. Palembang yaqinidagi Talang Ruvo shahridagi yozuv toshi (mill 684)
- v. Bangka orolidagi Kampur shahridagi yozuv toshi (mill 686)
- d. Karang Brahi, Meringin, Hulu Jambi hududidagi yozuvlar toshi (milodiy 686).

Malay atamasi milodiy 644 va 645 yillarda xitoycha belgilarda birinchi marta "malay" atamasi paydo bo'lgan. Ushbu qo'lyozmada yer yuzidagi mevalarni Xitoy qiroliga taqdim etish uchun o'z elchilarini Xitoyga yuborgan "Mo-Lo-Yue" odamlari haqida so'z boradi.

*Qadimiy malay tili bir nechta xususiyatlarga ega bo'lgan, ya'ni;*

- a. so'zlarning sanskrit tilidan o'zlashish elementlari mavjud bo'lgan;
- b. *b* tovushi qadimgi malay tilida *w* tarzda talaffuz qilingan (Masalan: wulan - bulan)
- v. *e* pepet tovushi mavjud bo'lmagan (misol – dgan yoki dengan)
- d. old qo'shimcha *ber* qadimgi malay tilida *mar* ko'rinishida bo'lgan (masalan, berlepas-marlepas).
- e. qadimgi malay tilida *di*-old qo'shimchasini- (misol: diperbuat niparwuat)
- f. *bh*, *th*, *ph*, *dh*, *kh*, *h* kabi qo'sh undosh tovushlar Sanskrit elementlari hisoblanib, ular qadimgi malay tilining asosiy xususiyatlaridan biri hisoblangan.

#### *Klassik malay tili*

XIII-asr bu Malay arxipelagida o'tish davrining boshlanishi bo'lib, mintaqada islom dini rivojlana boshlashi bilan ajralib turadi. Islom dinining malay xalqlari va tiliga ta'siri natijasida, Hindiston ta'siri asta-sekin islomiy va arab ta'siriga almashtirila boshladi. Klassik malay tilining gullab-yashnagan kunini davlat hukumati davrining uchta muhim kuniga, Aceh va Johor-Riau hukmronligi davrlariga bo'lish mumkin. Islomni qabul qilgan va ulkan imperiyani muvaffaqiyatli qurgan Birlashgan Malakka mintaqada malay tilining taraqqiyoti va rivojlanishini oshirishga muvaffaq bo'lgan. Malay tili ma'muriy va tijorat faoliyatida hamda "lingua franca" savdo-sotiq tili sifatida ishlatilgan. Malay tili, shuningdek, Malay arxipelagi bo'ylab islomni tarqatish vositasiga ham aylangan. Malay tili Jawi yozuvining yangi shakliga ega bo'lganligi bois islom dini sivilizatsiyasi olib kelgan g'oyalarni ifoda etish zarurati vujudga kelganligi sababli o'z so'z boyligi ham oshirib borgan. Malakka Sultonligining ulug'vorligi Tun Seri Lanangning "Malay yilnomalarida" aniq tasvirlangan, malay tilida yaratilgan ushbu asar malay xalqlari uchun asar bebaho hisoblanadi.

1511 yilda yevropaliklarning kelishi va Malakka Sultonligining portugallarga qulashi malay tilining ta'sirini tugatmaydi. Aksincha, malay tili va adabiyoti bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan va qo'lyozmalar yozadigan olimlarning aksariyati shu davrdan boshlab yevropaliklar hisoblangan. *Magellan* bilan italiyalik dengizchi sayohatining etakchisi *Pigafetta* 1521 yilda Tidor orolida to'xtash paytida malaycha -italyancha lug'atni tuzdi. Ushbu lug'atda shu hududda yashaydigan aholining 400dan ortiq so'zlari ro'yxati kiritilgan edi.

Gollandiyalik *Yan Xugen Van Linshoten* 1586-1592 yillarda Indoneziyada yashagan va Portugaliya hukumatida ofitser bo'lib xizmat qilgan. U o'z kitobida malay tili sharqiy davlatlar tillari orasida eng obro'li til sifatida qaralishini ta'kidlagan. XVIII-asrning boshlarida Gollandiyaning meng'anay Malay arxipelagi provinsiyasi haqida yozgan ruhoni va tarixchi Frantsios Valentijn Bahasa Melayuning ahamiyatini quyidagicha ta'riflagan:

*"Ularning tili, malaycha, nafaqat qirg'oq hududlarida, balki butun Malay arxipelagida va Sharqning barcha mamlakatlarida gaplashadigan, hamma hamma uchun tushunarli bo'lgan til sifatida ishlatilgan."*

Malay tilining yuksak obro'si va uning qo'llanilishi mintaqada keng tarqalganligining isboti Malay arxipelagidagi hokim va qirol-raja o'rtasidagi yozishmalarda qo'llanilganligida ham ko'rishimiz mumkin. Ular orasida:

- a. Aceh sultonining ingliz kapitani Jeyms Lansterga maktubi (1601)
- b. Aceh Sulton Alauddin Shohning Garri Midltonga maktubi (1602)
- v. Aceh sultonining ingliz qiroli Jeymsga maktubi (1612)

(Uchala maktub ham hozirgi kunda Bodelein kutubxonasi, Londonda saqlanin kelinmoqda).

Malay tilining obro'sini oshirishda mahalliy arboblarning sayi-harakatlari ham alohida taqsinga sazovor hisoblanadi, ular orasida:

- a. Shayx Nuruddin al-Raniri ("Bustanul Salatin")
- b. Shamsuddin Al-Sumaterani ("Mirat Al-Mukmin")
- v. Abdul Rauf Singkel ("Mirat Al-Tullab")

d. Xamza Fansuri ("Qayiq she'riyati")

*Zamonaviy malay tilini rivojlanishi*

Zamonaviy malay tili XIX asrda boshlangan deb taxmin qilinadi. Abdullah Munshi asarlari zamonaviy malay tili asrning boshlanishi deb hisoblanadi, chunki u malay mumtoz adabiyotini boshlab birganligi bilan e'tirof etiladi. Malayziyani inglizlar mustamlakaga aylantirishlaridan oldin malay tili yuqori mavqega ega bo'lib, islom ta'lim markazida o'qitish, ma'muriyat va boshqaruv, adabiyot va xalqni o'qitish tili vazifasini bajarib kelgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin inglizlar ingliz tilini malayziya maktablarida o'qitish sisosatini ilgari surganlar. Buning natijasida malay tili mavqeyiga juda katta ta'sir ko'rsatan, va shu asrdan boshlab juda ko'p inglizcha atamalar o'zlashtirilgan.

Malayziya mustaqilligini qo'lga kiritgach, Konstitutsiyaning 152-moddasida malay tili milliy til sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, unda "mamlakatning milliy tili malay tili va parlament qonunlarida nazarda tutilgan lavozimlarda yozilishi kerak" deb qayd etilgan. 1963-1967 yillardagi milliy til to'g'risidagi qonunda malay tili mamlakatning rasmiy tili ekanligi (federal, shtat, mahalliy va qonuniy organlar bilan barcha munosabatlarda ishlatiladigan til) ekanligi belgilab qo'yilgan. 1956 yildagi Razak ma'ruzasida malay tili ta'lim tizimida o'qitish tili sifatida foydalanilishi va irqalar orasidagi birlikning asosiy vositasiga aylanishi tavsiya etilgan.

Malay tili etimologiyasida, malay tilida o'zlashmalarning paydo bo'lishiga boshqa tillarda bo'lgani kabi lingvistik va ekstralingvistik omillar sabab bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, lingvistik va ekstralingvistik omillar bir-biridab nimasi bilan farq qiladi:

*Lingvistik (lisoniy) omillar.* Bularga muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi.

*Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar.* Bularga tildan tashqarida mavjud bo'lgan faktorlar kiradi: ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. Masalan, Malayziya mustaqillikka erishgach, uning ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy hayotida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi: bozor iqtisodiyotining rivojlanishi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yuzaga keldi. Bularning barchasi til leksikasiga ham ta'sir o'tkazdi, qadimdan ishlatilgan so'zlar o'rnini yangi atamalar egallay boshlaydi. Keltirilgan ma'lumotlardan shu narsa anglashiladiki, milliy tilning, shu jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar birga qatnashadi, ularning biri ikkinchisiga sharoit yaratadi, har ikkalasi bir butun mexanizm sifatida xizmat qiladi; til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari shuni taqozo qiladi.

Olib borilgan tahlilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, malay tilida o'zlasha so'zlarning o'zlashishiga asosan ekstrolingvistik omillar sabab bo'lgan, chunki, sanskrit va arab tili malay xalqlarining qadimdan dini va e'tidodi, hayot tarsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan bo'lsa, Portugal va ingliz tili esa malay klassik va zamonaviy malay tilining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdul Hamid Mahmood. Kamus Linguistik. – KL.: Dewan Bahasa dan Pustaka.
2. Abdul Basir Awang. Peminjaman kata bahasa Arab dalam bahasa Melayu. – P.,
3. Amadun Husin. Morfologi dalam pembinaan bahasa Melayu. Tesis Master. – KL.: Universiti Kebangsaan Malaysia. 2010.
4. Any Rozita Abdul Mutalib. Analisis Linguistik kata pinjaman terpilih bahasa arab dalam enakmen undang-undang keluarga islam. – M.: Universiti Sains Malaysia. 2008.
5. Abrak Otman, Nik Safiah Karim. Kamus fajar bahasa melayu. – KL.: Oxford fajar.
6. Collins, James T. Mukadimah Ilmu Etimologi. – KL.: Dewan Bahasa dan Pustaka.

---

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF FOLKLORE MUSIC IN CHILDREN'S EDUCATION

*Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li*  
*Teacher of the "Music Education"*  
*department of Termiz State University*

**Abstract.** This article provides information on the importance of folklore music in child education based on the topic "The role and importance of folklore music in children's education".

**Key words:** Folklore, music, culture, education, national, art, future, history, education.

The musical culture of the Uzbek people has a very long history. In the course of historical development, forms of performance close to each other in form and style, such as classical folk music, traditional professional music, folk compositional ways, as well as folklore amateur musical heritage, have complemented each other. This musical heritage of ours is manifested even today as a part of our spiritual culture.

With the honor of independence, we should take attention to our national-spiritual values, customs, forgotten, historically valuable traditions and the process of their reform as a priority.

Attention to our national values, traditions, and spiritual wealth has increased to the state level. In the first years of independence, a lot of work is being done to carefully preserve and restore the spiritual wealth left by our ancestors, including musical culture, and to keep pace with the times. In this regard, our great spiritual wealth, which our ancestors left us as a legacy, serves as the main factor.

At the meeting of President Shavkat Mirziyoyev with the intellectuals of our country on the topic "Development of literature and art, culture is a solid foundation for raising the spiritual world of our people", along with the development of our culture and art and positive trends in this regard, some negative situations, their influence in the life of society objectively and critically evaluate the current problems awaiting their solution and their elimination. They deeply analyzed the activity of creative associations, the Ministry of Culture and its associations and organizations, and emphasized the importance of increasing the role and role of creative intellectuals in the life of society and the process of reforms. The experience gained during the years of independent development, the worldview public recognized as the Uzbek model, and all the historical changes and innovations that are being implemented to build a great country in the future, the path of development suitable for us, are a great source of pride and consciousness of our people. is having an effect.

It is known from history that our musical culture, traditional songs, status performances, which are the main link of our spirituality, have always been recognized as spiritual food in the daily life of our people. The people sought salvation from music in difficult days, and songs and music accompanied them in

happy days. Because today, on the blessed day of our independence, at a time when we are realizing our identity, it is natural to rely on our national musical culture, which is a part of our great spirituality, inherited from our ancestors, and to turn to our traditional songs. is the case. All this is important in the upbringing of a mature generation, in the formation of the spiritual worldview of young people. Our traditional music and songs have always called people to faith, kindness and humanity. Even today, without losing its relevance, it remains one of the main factors in the way of independence, the formation of the consciousness of workers, and the education of a well-rounded generation. The art of singing, music, dance, folklore performance is one of the ancient art types that appeared and developed in close connection with the life and creativity of the people of the national music art. In particular, the traditional songs of our people are an immortal heritage, and today, as in all times, they answer "labbay". But at the same time, it is natural that not only worshiping history, but creating songs in accordance with the spirit of today, which is one of the main factors in the development of our national ideology, is an important task for all specialists and artists engaged in musical art. Our country started a completely new society, a new life and a new life. There have been changes in the hearts, thinking and imagination of our people. As the first President I.A. Karimov noted, the issue of spirituality includes many factors, such as the nation's history, moral and religious values, cultural heritage, traditions and customs, national ideology, patriotism and humanitarianism, and national identity. includes and ultimately serves as the main criterion for determining human identity.

"The future of our nation," writes the first President Islam Karimov, "primarily depends on it, on its spiritual strength and the creative power of its national consciousness." The natural desire for material well-being should not be an obstacle to the nation's need for spiritual and intellectual growth. "Spirituality and enlightenment have always been the strongest distinctive features of our people throughout the centuries-old history."

Based on these principles, it will be necessary for all directions of spiritual aspects to determine their goals and tasks. Especially in this regard, it is important to assess the special place of musical culture in spiritual life, to realize that its main criterion is to direct its power of influence towards the ideology of independence. Shifts are being observed in cultural life today according to this principle. We would not be mistaken if we say that the thoughts of creators are directed towards these principles.

Musical culture is distinguished by its diversity. In particular, the rich musical heritage of the Uzbek people, whose deep roots go back to ancient times, is not separated from our current daily life. It includes high examples of folk art, folklore performance, melodic structure, meaningfully developed instrumental and vocal works, performance of epics, and the so-called status music, a complex performance series. In addition, the creativity of folk composers, who have made significant contributions to the national musical culture in all eras, also occupies an important place.

Our national values, that is, our national styles, are our heritage that we must pass on to the next generation. Based on these, we tried to cover this topic and cover the history of the topic.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev , X. (2024). BOSHQARUVNING XORIJIY MODELLARI VA O'ZIGA XOS TAMOILLARI. Центральноеазиатский журнал образования и инноваций, 3(2), 66–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/27195>
2. Kholmatov , S. (2024). FORTEPIANO CHOLG'U ASBOBI TARIXI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(3), 22–24. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/28561>
3. Sherzod Khushbekovich Kholmatov. (2022). EXERCISE TECHNIQUES FOR THE PIANO. World Bulletin of Social Sciences, 5, 162-165. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/430>
4. Hakimov , O. B. (2022). FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATIDA QO'SHIQ JANRINING O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 23–28. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/571>
5. Hakimov Orifjon Boboramazonovich. (2024). PERFORMANCE SKILLS AND ARTISTRY IN SURKHAN OASIS EPIC TRADITIONS. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 24, 45–50. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/982>
6. Hakimov, O. . . (2024). The Formation of the Art of Surkhandarya Musical Performance. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(4), 254–259. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2019>

---

## CEREMONIAL SONGS ON THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS

*Xakimov Orifjon Boboramazonovich*  
*Teacher of the "Music Education"*  
*department of Termiz State University*

**Annotation.** This article provides information about ceremonial songs based on the topic "Ceremonial songs on the example of Surkhandarya and Kashkadarya regions".

**Key words:** Ceremony, song, lapar, yalla, labor ceremony, wedding ceremony, terma, Navroz.

In the process of students listening to works of local musical styles, i.e. sayings in music lessons, to create certain artistic-emotional impressions of these works, to study them, to appreciate them, to learn about their performance traditions. The descriptions given by the teacher about the "work" play an important role in their acquisition of the necessary knowledge and understanding. At the heart of these descriptions, the information about the performance of the samples, the activities of human social life, their ideological and artistic content, and who performed them should be expressed.

For example, it is known that labor sayings, which are one of the most ancient examples of folk music, were created during various forms of work, such as plowing, planting crops, threshing grain in a hand mill, and spinning yarn. In addition to helping to perform certain work in an orderly and organized manner, work songs that give a person artistic and aesthetic pleasure, are dedicated to pleasure, and create an upbeat mood are undergoing changes under the influence of modern important and conditions. It should also be noted that zan is losing its initial social significance. For example, the threshing song "Maydayo-mayda" that was sung during the threshing of wheat from the past is almost not used in current practice. Although this saying was revived by "Boysun" and "Chavki" folklore ethnographic ensembles, it took on a secondary folklore color in its unique modern-stage forms.

Seasonal ritual songs were formed as part of various regional rituals and customs that arose during the long historical past of the Uzbek people, and the most popular of them were created in connection with the spring season and Navruz holiday. It has become a tradition to celebrate important dates and ceremonies related to a person's life path. Among these, we can include cradle weddings, muchal weddings, khatna (circumcision) weddings, marriage weddings, and mourning related to public ceremonies.

At this point, we will discuss what to pay attention to in the process of learning, listening, and analyzing samples of music specific to local styles, what information to use to ensure the effectiveness of the lesson and, in turn, to increase students' interest in folk music and we considered it permissible to dwell on the fact that it is of great importance in the development of their desire to learn.

Among the local musical styles, the Bukhara-Samarkand style is unique because it is the leader in the development of professional music in this region. Another important feature of this style is the multi-ethnicity of these regions, of which Uzbeks, Tajiks, and Jews make up the majority. That is why bilingualism is widespread in Bukhara-Samarkand folklore. When studying examples of this style, it is necessary to pay attention to zang, erma, hay nozanin, ufor, and the series of songs known as small ghazals. Maida is a small song and performance taken from ghazal-maqom and folk songs, which are composed of small folk songs created on the basis of mavrigi and maqom melodies. In some cases, they are also called "terms". They can also be seen in Bukhara and Zang series, which are popular among women.

Surkhandarya-Kashkadarya music style. Unlike other regions of the republic, most of the population of the southern regions of Uzbekistan, Surkhandarya-Kashkadarya, lived in the past mainly engaged in animal husbandry, and only a few in agriculture. This is why the songs about the work of cattle herders and the life of farmers occupy a special place in the musical folklore of these regions. Epic performers, that is, Bakhsh poets, also played an important role in the musical life of these regions.

Surkhandarya-Kashkadarya traditional musical instruments. Musical instruments in the country have been cherished, respected and performed by the local people since the long historical past, they are dombira, changqobuz, doyra, kobiz, shepherd's pipe or g 'achir nay, sibizga.

Dombira is a two-stringed percussion instrument. This instrument is one of the most common tunes in Surkhandarya-Kashkadarya local music, and it is played with pleasure by Bakhsh poets and shepherds.

Changkovuz is a special tool made of iron or bone. An iron dust collector is usually circular in shape. A steel tongue 7-9 cm long is passed through its middle. To play the changqovuz, it is necessary to press it to the teeth with the left hand, and at the same time, under the influence of the index finger of the right hand, it is necessary to wave the tongue. This instrument is loved not only by adults, but also by children.

### References

1. Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li. (2024). Performance In Folk Instruments (Gijjak Kobus Bass). International Journal of Formal Education, 3(4), 66–68. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2492>
2. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 76-79.
3. Choriyev , B. (2022). G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573>

4. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(1), 67–73. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/20>
5. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovoqli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, 3(4), 776-780.
6. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS. *EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH*.
7. Choriyev, B. (2021). umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishdagi kamchiliklar va muammolar. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>.
8. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI. In *REPUBLICAN SCIENTIFIC CONFERENCE MODERN EDUCATION AND UPBRINGING PROBLEMS, SOLUES AND PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
9. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), 83-87.
10. Jumayev, X. (2024). BOSHQARUVNING XORIJIY MODELLARI VA O'ZIGA XOS TAMOILLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(2), 66–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/27195>
11. Kholmatov, S. (2024). FORTEPIANO CHOLG'U ASBOBI TARIXI. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(3), 22–24. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/28561>
12. Beknazarov K. Pedagogical conditions for developing musical competence of future music teachers using uzbek folk instruments // *Current research journal of Pedagogics*. – 2023. – Т. 4. – №. 06. – С. 101-107.
13. Beknazarov X. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik tamoyillari // *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*. – 2023. – С. 104-106.
14. Beknazarov K. Strings of my dutar // *International Journal of Advance Scientific Research*. – 2022. – Т. 2. – №. 04. – С. 59-63.

## FORTEPIANO CHOLG'U ASBOBIDA TOVUSHLAR RANG-BARANGLIGINING MUHIM AHAMIYATI

*Kholmatov Sherzod Khushbekovich*

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti,  
musiqa ta'limi kafedraasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fortepiano cholg'u asbobida musiqa tovushlar rang-barangligining ustida ishlashning vazifalari va uning aniqlik bilan rang-barang ohanglarni professional tarzda ijro etish metodlaridan tashkil topgan bo'lib, pedagogning zimmasiga qo'yiladigan vazifa va topshiriqlarni unumli bajarish usuliyatlari va printsiplari, shu nuqtai nazardan berilgan ma'lumotlar aks etmoqda, binobarin har tomonlama barkamol avlod va yosh o'qituvchi kadrlarimizning sifatli olgan bilim ko'nikma malakalarini muayyan tovushlarni olish mexanizmlari va turli metodlar texnikasini qo'llash hamda uzviy qiyoslash, shuningdek, ilg'or tajribalarni keng takomillashtirishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** cholg'u, rang-barang, pedagogika, instruktiv material, faollik, badiiy- ijrochilik, mutaxassis, madaniyat, san'at, musiqa, faoliyat, maktab, maqsad, vazifa, xususiyat, badiiy-to'garak, tovush, ohang, vazifa, musiqa,

Agar ijrochining musiqa asari ustida ishlashdagi asosiy vazifasi badiiy obrazni ifodalashdan iborat bo'lsa, bu vazifani hal qilishning eng muhim vositalaridan biri kerakli darajada sifatli tovushni topa olishdir. Shunga ko'ra G.Neygauz «musiqa tovush san'ati»,— deb yozgan va tovush musiqachining asosiy ishi ekanini ko'p marta ta'kidlagan edi. Klaviatura bilan shug'ullanishning, fortepiano ta'limining dastlabki paytidan boshlab tovush ustida ishlash kerak. Mashqlar mavhum bo'lmasligi, faqat barmoqlarni chaqqon ishlatish yoki texnik usullarni o'rganish uchungina o'tkazilmasligi kerak. Ba'zan tovush ustida ishlash jarangdor tovushlarni qidirishdan iborat bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, ijro etishda «umuman» chiroyli tovush bo'l- maydi. Bir holda «chiroyli» tuyulgan tovush ikkinchi holda «xunuk» eshinishi mumkin, eng muhimi tovush doimo badiiy obrazning mohiyatini ifodalashidir.

G. Neygauz o'zining mazkur kitobida uqtirganidek, o'qituvchi va o'quvchilarning tovush ustida ishlashdagi xatolari ko'pincha tovushni yetarlicha baholamaslikda yoki unga ortiqcha baho berishda ko'rinadi. Tovushni yetarlicha baholamaydiganlar asosiy vazifa deb o'quvchida izchil ijro etish malakasini texnik jihatdan bilimdonlikni tarkib toptirishni biladilar, tovushga ortiqcha baho beradiganlar esa aksincha, o'quvchiga chiroyli tovushlar bilan chalishni o'rgatishga harakat qilib, birinchidan, go'zallik nisbiy tushuncha ekanini, ikkinchidan, ijrochilik texnikasini o'zlashtirmay turib badiiy g'oyani ham yetarli darajada mazmunli amalga oshirib bo'lmasligini unutib qo'yadilar.

Fortepianoni chalishning eng ko'p uchraydigan asosiy usullaridan biri legato bo'lib, u fortepianoda «kuylash» imkoniyatini yaratadi. Yaxshi legator bir qancha shartlarni amalga oshirishga bog'liq bo'ladi. Eng avval o'quvchini bitta tovushdan

boshlab o'zining ijrosi diqqat bilan eshitishga, tovushning cho'zilishini ham, chiroyli tugashini ham eshita olishga o'rgatish kerak.

Mana shularni nazarda tutib, o'quvchi tovushlar chiqarishi va qo'llarni yuritish mashqlar bilan shug'ullanadigan dastlabki darslardayoq unga pasayib borayotgan tovushni oxirigacha eshitishni va uning davom etayotganini barmoq uchi bilan sezishni o'rgatish kerak. O'quvchi qo'lni (masalan, oktava orqali boshqa klavishga yuritishda faqat qo'lni) emas, balki qandaydir tovushni ham eltishi lozim. Natijada tovushni oxirigacha eshitish va ko'chirishdan iborat uzluksiz jarayon hosil bo'ladi. Bu sezgi qo'llarni tabiiyroq shaklda harakatlantirishda yordam beradi. Qo'l va barmoqlarni chaqqon, faol harakatlantirish chiroyli ijro ustida ishlashning zarur shartidir. Barmoq va qo'lni klaviaturaga qo'ymaslik, balki undan tovushni olish, chiqarish; klavishni bosib va tutib turmaslik, balki tovushni tinglash va eltish, qo'lni ko'tarmaslik, balki nafas olish lozim. Bunday topshiriqlar qo'lning harakatlarini tabiiyroq shakllantiradi.

Shuni unutmaslik kerakki, ohangdor kuylarni ijro etishdagi asosiy kamchiliklar ko'pincha tovushni oxirigacha eshitmaslikdan va kuyning jonli harakatini yetarli darajada his etmaslikdan kelib chiqadi. Agar, quloq tovushni oxirigacha eshitmasa, barmoqlar passivlashadi; qo'llar bo'shashib, har bir tovush o'zidan oldingi tovushlarga qo'shilmay, qo'l va barmoqlarning yangi harakati yordamida qandaydir boshidan boshlanadi. Natijada frazalar uzuq-yuluq jonsiz bo'lib qoladi. Shunga ko'ra A.Goldenveyzer: «Agar men klavishni bosib, mazkur tovushni unutsam, so'ngra unga keyingi tovushni moslashtira olmasam, musiqaning ravonligini uzadigan uzilish ro'y beradi»,—deb yozgan edi.

O'quvchida bitta tovushni har xil ohangda va turli yo'sinda "ijro etish ko'nikmasini tarbiyalash ham muhimdir. Bularning hammasi eshitib tasavvur qilish qobiliyatining shakllanishi va uzluksiz takomillashuvi, eshitishni nazorat qilishning rivojlanishi, chalish vaqtida o'zini tanqidiy baholash ko'nikmasi bilan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Choriyev Bekzod Bahrom o'g'li. (2024). Performance In Folk Instruments (Gijjak Kobus Bass). International Journal of Formal Education, 3(4), 66–68. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2492>
2. Bekzod, C. (2023). THE HISTORY OF THE CREATION OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS AND THE RAVINES OF IMPROVEMENT. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 76-79.
3. Choriyev, B. (2022). G'IJJAK QOBUZ BAS CHOLG'USINING YARATILISH TARIXI VA O'ZBEK MUSIQA IJROCHILIGIDA TUTGAN O'RNI. Journal of Integrated Education and Research, 1(7), 34–37. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/573>
4. Choriyev, B. (2022). ISSUES TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MUSIC CULTURE CLASSES IN SECONDARY SCHOOLS. Journal of Integrated Education and Research, 1(1), 67–73. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/20>

5. Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansamblarning tashkil topishi. *Science and Education*, 3(4), 776-780.
6. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS. *EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH*.
7. Choriyev, B. (2021). umumiy o'rta ta'lim muassasalarida musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishdagi kamchiliklar va muammolar. URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>.
8. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI. In *REPUBLICAN SCIENTIFICAL CONFERENCE MODERN EDUCATION AND UPBRINGING PROBLEMS, SOLUES AND PERSPECTIVE OF DEVELOPMENT*. Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan.
9. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12(80), 83-87.
10. Jumayev, X. (2024). BOSHQARUVNING XORIJIY MODELLARI VA O'ZIGA XOS TAMOILLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(2), 66–69. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/27195>
11. Xakimov, O. B. (2022). FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATIDA QO'SHIQ JANRINING O'RNI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(7), 23–28. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/571>
12. Xakimov Orifjon Boboramazonovich. (2024). PERFORMANCE SKILLS AND ARTISTRY IN SURKHAN OASIS EPIC TRADITIONS. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 24, 45–50. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/982>
13. Xakimov, O. . . (2024). The Formation of the Art of Surkhandarya Musical Performance. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(4), 254–259. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/2019>

## ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯСИДА БАХШИ ДОСТОНЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

*Нортोजи Худойбердиев*

*Термиз давлат университети*

*Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси:*

**Аннотация.** Ушбу мақолада халқимиз миллий маданиятининг ноёб дурдоналарининг бой муסיқий мероси бўлган халқ оғзаки ижод маҳсули саналмиш сурхон этно фольклорининг бахшичилик ва достончилик йўналишидаги муסיқий анъаналарининг маънавий маданий ҳаётимиздаги ўрни ҳамда аҳамияти ҳақида батафсил маълумотлар келтирилган бўлиб, ўқувчиларга бахшичилик санъати динамикасини янада кучайтириш орқали уларнинг бахшичилик маҳоратини ўстириш, нозик дид эгаси этиб тарбиялаш ва юксак шинавандалик меъзоида ўлчанишини ёрқин ифода эта оладиган даражада вояга етказиш каби бир қатор вазифалар киритилган.

**Калит сўзлар:** Бахшичилик, халқ оғзаки ижоди, фольклор, этномаданият, достончилик мактаби, сурхон миллий чолғулари

Олимларимиз муסיқа меросимизнинг шаклланиш даврини 4000 йилга тенг деб ҳисобламоқдалар. Ана шу узундан – узоқ йиллар, давомида муסיқий меросимиз икки йўналишда шаклланиб келиб, бир-бирига муштарак ҳолда ривожланиб ўзига хос жозоба сифатларига эга бўлган муסיқий мерос ташкил топган. Шундай экан, ўзбек халқига мансуб бўлган бой муסיқий меросимиз жумладан сурхон этно фольклорининг бахши достончилик йўналишидаги муסיқий анъаналаримиз оғзаки ижод маҳсули сифатида шу кунгача халқимизга ҳизмат қилиб келмоқда. Бу олижаноб мақсадга эришишда тўғри йўлга қўйилган тарбия катта аҳамиятга эгадир. Бизнинг таълим-тарбия тизимимиз ҳамма учун бир хил имкониятлар яратади ва ҳар бир кишида мавжуд бўлган иқтидор, қобилиятни ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратишга қаратилади. Ўрта Осиёдан чиққан олим ва мутафаккирлар Форобий, Ибн Сино, Ибн Зайла ва Абу Абдуллоҳ Хоразмий X-XI асрлар Шарқ муסיқа илмининг шаклланишига ва ривожига асосий ва ҳал қилувчи ҳисса қўшганлар. Муסיқанинг келиб чиқишини турли афсоналар, диний ривоятлар билан боғламаган ҳолда илмий ёндашув билан шарҳлаган. Бу зотлар муסיқа илмини математиканинг таркибий қисми деб қараганлар ва улар яратган бу соф илмий йўналиш халафлар томонидан қабул қилинган. Хусусан, Сафийуддин Урмавий (1216-1294), Қутбиддин Шерозий (1236-1310), Абдулқодир Мароғий (XIV аср), Маҳмуд Омулий (вафоти 1349), Абдурахмон Жомий (1414-1492), Зайнулобидин Хусайний (XV аср), Нажмиддин Кавкабий (XVI аср), Дарвиш Али Чангий (XVII аср) каби Муסיқа маданий ҳаётимизда кенг ўрин тутган топади ва салобат бахш этиб уни кўркам қилади. Миллий маданиятимиз бобоқалони Абу-Наср Ал-Фаробий эса муסיқанинг шахс шаклланишига аниқ таъсирини қуйидагича баён этади: «Бу фан шу маънода фойдалики, кимнинг феъл атвори

мувозанатни йўқотган бўлса, тартибга келтиради, камол топмаганларни камолотга етказди ва мувозанатда бўлганларнинг мувозанатини сақлайди. Бу фан таннинг соғлиги учун ҳам фойдалидир». Шундай экан, ўзбек халқига мансуб бўлган бой мусиқий меросимиз жумлада сурхон этно фольклорининг бахшичилик ва дostonчилик йўналишидаги мусиқий анъаналаримиз оғзаки ижод маҳсули сифатида шу кунгача халқимизга хизмат қилиб келмоқда. Миллатимизнинг маънавий юксалиб бораётганлиги жараёнида миллий қадриятларимизни қайта тиклаш, уни қалбдан ҳис этиш тарғибот қилиш, ёш авлод тарбиясида қўллаш каби ишларни бажариш ҳар бир устоз саъяткорларнинг зиммасидаги катта масъулиятдир. Этно-фольклоримиз ёшларимиз қалбига ҳар тамонлама мукамаллик, ҳалоллик, камтарлик, яхшилик ва эзгуликни жойлаш аҳамият касб этади. Шу ўринда маънавий баркамол қилиб тарбияланишида бахши дostonчилик санъатининг роли ҳам алоҳида эга. Чунки, халқимизнинг мениталитетига хос бўлган қадриятларни сақлаб қолиш, уни халқимиз мулкига айлантириш муҳим аҳамиятга эгадир. Аждодларимиз қолдирган бахши дostonчилик санъатидан ёшларни баҳраманд қилиш уларнинг интеллектуал имкониятларини янада кучайтириш, илм-фан ва маънавиятга бўлган интилишларини ҳар тамонлама қўллаб-қувватлаш каби вазифаларни амалга ошириш асосий мақсадлардир.

XXI-асрда ижтимоий иқтисодий муносабатлар ривожда инсон ақл заковати ва маънавияти асосий мувофиқлаштирувчи, ривожлантирувчи омил ва восита эканлиги тобора намоён бўлмоқда. Шунинг учун бугунги кунда халқимизнинг миллий ўзлигини англаш жараёни фаоллашиб бораётганлиги сабабли ёшларни маънавий-ахлоқий аҳамияти сезиларли даражада юзага чиқмоқда. Шу боис жамиятимиз тараққиёти учун янгича миллий руҳда фикрловчи шахснинг шакилланиши муҳим аҳамиятга эга.

In 2017-2021, in the Strategy of Action adopted on the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan, the study and analysis of the activities of local public authorities and determining the adoption of appropriate measures on its results as an important form of parliamentary control directly serves the solution of prospective tasks in this direction.

We believe that the allocation of this type of control separately in the Law "On Parliamentary Control" will serve as an important basis for the launch of targeted control in this direction.

With regard to the analysis of the factors of influence of parliamentary control on the relations of the state and society from the political point of view, the following conclusions were made:

First, the factors that influence parliamentary oversight differ depending on the form of government, political regime and the position of political parties in parliament. In countries with presidential and semi-presidential governments, the ability of parliament to influence the government is much weaker than in countries with parliamentary republics.

Second, if the president, members of the government and the majority in parliament belong to the same party, the effect of parliamentary control will not be effective.

Thirdly, parliamentary control exercised by the chambers of the Oliy Majlis is of great practical importance in determining social relations in society, where there is a need for compliance with the law, its enforcement and regulation by the State. norms of law, as well as in the regular harmonization of existing legislation with the requirements of public life. Parliamentary control is also a necessary tool for increasing the responsibility of officials and creating a spirit of respect for the law in the minds of citizens.

### References

1. Sh. Kudratkhozhaev. Prospects of formation and development of professional parliamentary system as a political institution in Uzbekistan. T.: NMFL "Sharq", 2007, pp. 119.
2. B. Yakubov, The role of political parties in modernization processes in Uzbekistan. Author's abstract of dissertation of doctor of political sciences. Tashkent, 2021, pp. 31.
3. O. A. Hasanov Process of democratization of parliamentary control in Uzbekistan. Candidate dissertation for the degree of candidate of political sciences. T., 2018, p. 23.
4. E. Kovryakova. Parliamentary control: Zarubezhny opyt i rossiyskaya praktika MJ: JSC "Publishing House "Gorodets", 2005, p. 77.

## MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA VAKILLIKNING QONUNYI VAKOLATLARI

*Ergashev Yo'ldosh Danaboyevich*  
*Samarqand viloyat yuridik texnikumi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida sudlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan Ma'muriy sudlarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish vakillik qonuni vakolatlari to'g'risidagi kodeksining qabul qilinishi, Ma'muriy sudlarning takomillashib borishining huquqiy asoslari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** sud vakolatlari, taraflar, ma'muriy sudlar, kodeks, strategiya, ma'muriy yustisiya.

Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari va erkinlik-larini ta'minlashda, jamiyatda qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkam-lashda hamda fuqarolar o'rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta'minlashga ko'maklashishda, fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, qolaversa, qonun hujjatlarini amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish va takomillashtirishda sud hokimiyati alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham jamiyatda sud organlarining nufuzini oshirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini va faqat qonunlarga asoslanib ish yuritishini ta'minlash mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurishdagi muhim shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ma'muriy sudlarni tashkil etishning nazarda tutilishi ham aynan inson huquqlarini himoya qiluvchi sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudda ishlarni ko'rish va hal etishning sifatini oshirish, pirovardida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil etilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 110-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik, jinoiy, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimiyatining oliy organi hisoblanishi bilan bog'liq konstitutsiyaviy normaning amalga oshirilishini ham ta'minlaydi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasida fuqarolik, jinoiy va iqtisodiy sud ishlarini yuritish bilan bir qatorda ma'muriy sud ishlarini yuritish alohida sohaga ajratilganligi, qolaversa, ma'muriy protsess boshqa sud ishlarini yuritishda o'ziga xos bo'lgan jihatlari bilan alohida ajralib turishi Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeksni qabul qilinishini taqozo etadi. Sudda ma'muriy ishlarni yuritishning fuqarolik protsessidan ajratib turadigan muhim jihati - unda bir tarafda albatta mansabdor shaxs (davlat boshqaruvi organi) qatnashishidir. Fuqarolik-protsessual munosabatlarda esa har ikkala tomonda ham o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadini ko'zlovchi fuqarolar-mulkdorlar ishtirok etishi mumkin. Ma'muriy sud ishlarini yuritishda mansabdor shaxslar xususiy shaxs sifatida emas,

balki o'zi faoliyat ko'rsatayotgan idora, tashkilotning vakili sifatida ishtirok etadi. Shikoyatchi nizolashayotgan xatti-harakat ham ushbu shaxs tomonidan o'z xizmat vazifasini bajarishga qaratilgan xatti-harakat sifatida talqin etiladi. Bir so'z bilan aytganda, ma'muriy sud ishlarini yuritish o'zida bir tarafda fuqaro, ikkinchi tarafda esa mansabdor shaxs (ijro hokimiyati organi) o'rtasidagi ma'muriy-huquqiy nizolarni hal etishning maxsus protsessual tartibini belgilaydi. Sudda ma'muriy protsess davlat boshqaruvi sohasida odil sudlovni amalga oshirishning muhim usuli va vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz Konstitutsiyasi ishlab chiqilayotgan Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo'yilgan sud ishlarini yuritishning muhim konstitutsiyaviy prinsiplari, ya'ni sudya-larning mustaqil ekanligi va faqat qonunga bo'ysunishi, Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi, hamma sudlarda ishlar ochiq ko'rilishi, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekanligi, O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib borilishi, sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanishi, himoyalani huquqi bilan ta'minlanish va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqining kafolatlanishi kabi prinsiplar Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksida ham o'z ifodasini topishi lozim.

Ma'muriy yustitsiya jismoniy va yuridik shaxslarning ma'muriy organlar bilan o'zaro munosabatlarida vujudga keladigan ommaviy-huquqiy xarakterdagi nizolarni xal etishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizm bo'lib, milliy va xorijiy mamlakatlarlar tajribasi uni uch xil shaklda, ya'ni umumiy sudlov shakli, kvazi sudlov shakli, maxsus sudlov shaklida tashkil etish mumkin ekanligini ko'rsatdi. Bugungi kunda esa, ma'muriy sudlar tizimini o'timallashtirish maqsadida tuman ma'muriy sudlarini tumanlararo sudlarga aylantirildi, qonun hujjatlariga xorijiy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish natijasida o'zgartirishlarning kiritilishi ma'muriy sudlarning ish hajmi kamayishiga olib keldi, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko'rib chiqish samaradorligi esa yanada oshirildi.

Ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirishga alohida ahamiyat berildi. 2022 yil 29 yanvarg' kungi «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini tahminlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-107 sonli Qarori qabul qilindi.

Mazkur normativ hujjatlar asosida olib borilayotgan islohatlarning samarasi Ma'muriy sudlarning maqsad va vazifalari, Ma'muriy yustitsiya haqida fuqarolarimiz tomonidan yetarlicha bilim va tasavvurning mavjud bo'lishiga bog'liqdir. Konstitutsiyamizning 44-moddasida har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayri qonuniy hatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan.

Aytilganlarga shuni qo'shimcha qilish kerakki, agar biz ushbu kontseptsiyaga amal qilsak, u holda vakil tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar nimadan iborat bo'lishi, agar ular vakillik bo'lmasa, ular qanday boshqa huquqiy atama bilan belgilanishi mumkinligi noaniq bo'lib qoladi.

Qonuniy vakillar sudda ma'muriy ish yuritishni o'zlari tanlagan vakilga topshirishlari mumkin. Bunday holda, biz ularning huquqi haqida gapiramiz. Ammo, agar yuqorida ko'rsatilgan Kodeksda vakilning sud protsessida majburiy ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lsa, qonuniy vakillar sudda ma'muriy ish yuritishni o'zlari tanlagan vakilga topshirishlari shart. Shu bilan birga, bu holatda huquqiy tartibga solishning kamchiligi shundaki, yuqoridagi normalarda qonuniy vakil bo'lgan fuqarolar tomonidan saylanganlarga qo'yiladigan talablar haqida hech narsa aytilmagan. Hozirgi vaqtda protsessual qonun hujjatlarida, shu jumladan ma'muriy qonun hujjatlarida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida qo'llanilgan "shikoyat qilingan" atamasi o'rniga, ommaviy-huquqiy hujjatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha ish yuritishni boshlagan boshqa atama - "e'tiroz bildirilgan" atamasi qo'llanila boshlandi. munosabatlar da'vo ko'rib chiqishga yaqinroq bo'lib, ma'muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan hollarda "shikoyat" atamasini "ma'muriy da'vo" atamasi bilan almashtirish uchun asos bo'ldi.

Faoliyat sifatida vakillikning aniqroq ta'rifi tan olinishi kerak. Vakillikni amalga oshirish, vakillik maqsadi yoki vakillikdan voz kechish haqida gapirganda, bu faoliyat ekanligiga shubha yo'q. Ko'rinib turibdiki, ushbu odatiy formulalardan foydalanishdan butunlay voz kechish yoki ularga huquqiy munosabatlar sifatida vakillik tushunchasiga asoslanib, oldindan noma'lum bo'lgan maxsus ma'no berish kerak emas. Ma'muriy ishlar bo'yicha sud vakilligiga kelsak, u taraflar, manfaatdor shaxslar, prokuror va ma'muriy protsessning boshqa ishtirokchilarining faoliyati bilan bir qatorda protsessual faoliyat turi sifatida ishlaydi. Vakillikning amaliy ahamiyatini tushunishga imkon beradigan dinamik moment. Shunday qilib, advokat protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi (va statik holatda bo'lmagan holda) vakillik maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, ya'ni. vakillik qilgan shaxs tomonidan ma'muriy huquqiy munosabatlar sohasida o'z huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud tomonidan himoya qilinishi. Bu nuqtai nazarga e'tiroz bildirgan holda, vakillik faoliyati huquqiy munosabatlardan tashqarida bo'lishi mumkin emasligi, u faqat muayyan huquqiy munosabatlar doirasida vakillik vakolatlarini amalga oshirishdan iborat ekanligidan dalolat beradi<sup>7</sup>. Dalil sifatida keltirilgan pozitsiyaning o'zi to'g'ri. Biroq, huquqiy munosabatlar doirasida vakil tomonidan huquqiy harakatlar amalga oshirilishi qarorga umuman

ta'sir ko'rsata olmaydi vakillik tushunchasi haqida savol. Bu, xususan, huquqiy munosabatlar emas, balki tegishli faoliyatning vakolatxona tomonidan tan olinishini istisno qilmaydi.

Aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 29 yanvarda "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subhektlari huquqlarining samarali himoya etilishini tahminlash hamda aholining sudlarga qarori ham jamiyatda ma'muriy sudlarning rolini kuchaytirish, ularni fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining haqiqiy himoyachisiga aylantirish maqsadida taraflarga, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo'yicha kelishuv bitimini tuzish huquqini berish, davlat organlari yoki tashkilotlari ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ish bo'yicha hal qiluv qarorini u qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oy davomida ijro qilish hamda bu haqida ma'muriy sudga xabar berish, sud hujjati ijro qilinmaganligi uchun mansabdor shaxslarga nisbatan sud jarimasini qo'llash, sudlar tomonidan da'vo arizasi, ariza hamda shikoyatni sudga taaluqli bo'lmaganligi sababli qabul qilishni rad etish yoki ish bo'yicha ish yuritishni tugatishni tahqiqlash, bunda da'vo arizasi, ariza, shikoyat yoki ishni ularni ko'rib chiqishga vakolatli sudga o'tkazish kabilar belgilangan.

Sud ma'muriy nazoratni o'rnatish, uzaytirish yoki ma'muriy cheklashlarni qo'shish, shuningdek ma'muriy nazoratni muddatidan oldin tugatish to'g'risida tegishli axloq tuzatish muassasasi yoki ichki ishlar organining ma'muriy ishlar bo'yicha tegishli tartibda xabardor qilingan vakilining kelishini majburiy deb topishi mumkin. yoki ma'muriy cheklovlarni qisman olib tashlash (4-qism, RF 272-modda). Mazkur moddaning 6-qismiga ko'ra, sud tomonidan kelishi majburiy deb topilgan ushbu vakillar uzrli sabablarsiz kelmagan taqdirda, ularga belgilangan tartibda va miqdorda sud jarimasi ham solinishi mumkin. uchun San'atda. Ushbu Kodeksning 122 va 123-moddalari.

Ishonchnomada, xususan, vakilning huquqlari ko'rsatilishi kerak:

- 1) ma'muriy da'vo arizasini va ma'muriy da'vo arizasiga e'tirozlarni imzolash va ularni sudga taqdim etish;
- 2) ma'muriy da'vo bo'yicha dastlabki himoya choralarini qo'llash to'g'risidagi ariza bo'yicha;
- 3) qarshi ma'muriy da'vo qo'zg'atish;
- 4) taraflarni yarashtirish to'g'risida bitim yoki ma'muriy ishning haqiqiy holatlari bo'yicha taraflarning kelishuvini tuzish;
- 5) ma'muriy da'vodan to'liq yoki qisman voz kechish yoki ma'muriy da'voni tan olish uchun;
- 6) ma'muriy da'voning predmetini yoki asosini o'zgartirish;
- 7) vakilning vakolatlarini boshqa shaxsga (subdelegatsiyaga) o'tkazish;
- 8) sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha ko'rib chiqish to'g'risidagi arizani imzolash;
- 9) sud hujjati ustidan shikoyat qilish;
- 10) undirish uchun ijro varaqasini taqdim etish;
- 11) mukofot pullarini yoki boshqa mulkni olish.

Shu bilan birga, aholi va mansabdor shaxslarning umumiy va ma'lum darajada huquqiy savodxonligi darajasining oshishi bilan fuqarolar va tashkilotlar tomonidan yetarlicha maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan vakillarni noto'g'ri tanlash holatlari ko'payib borayotgani ko'rinadi. o'qitish kamayadi, shuning uchun tomonlarning o'zlari va amaliyotga jalb qilingan boshqa shaxslar tomonidan vakillarni "tabiiy" tanlash samaraliroq bo'ladi. Bundan tashqari, ma'muriy ish yuritishda vakil bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini zamonaviy huquqiy tartibga solish rasmiy huquqiy xarakterga ega bo'lgan quyidagi izohlarni keltirib chiqaradi.

Shu bilan birga, yuqoridagi vakolatlarining ayrimlarini ma'muriy ish yuritish bo'yicha vakilning maxsus vakolatlari qatoriga kiritish maqsadga muvofiqligi shubhalarni keltirib chiqaradi. Bu, xususan, ma'muriy da'vo bo'yicha e'tirozlarni imzolash vakolatiga taalluqlidir, chunki ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqayotganda, sud ushbu e'tirozlarda keltirilgan dalillar bilan bog'lanmaydi va ko'pincha ularning chegaralaridan tashqariga chiqadi. Bundan tashqari, ma'muriy javobgarining o'zi yoki uning vakili dastlab ular tomonidan shakllantirilgan ma'muriy da'voga e'tirozlar uchun asosni o'zgartirishi mumkin, bu nafaqat ma'muriy da'vogarga, balki ma'muriy javobgarga ham tegishli bo'lgan ixtiyoriylik printsipiga to'liq mos keladi. . Ma'muriy da'voga e'tirozlarda ifodalangan, umuman ish bo'yicha javobgarining pozitsiyasining keyingi o'zgarishini inkor etib bo'lmaydi. Shunday qilib, qo'zg'atilgan ma'muriy da'vo bo'yicha unga e'tirozlarda bildirilgan fikrni yakuniy deb hisoblash mumkin emas, shuning uchun vakilning ushbu e'tirozlarni imzolash vakolatini maxsus vakolatlar deb tasniflashning hojati yo'q. Qarshi da'voni o'z tartibida berish dastlabki da'vo arizasini berishdan farq qilmasligi sababli, vakilga qarshi ma'muriy da'vo qo'zg'atish huquqini berish uchun ishonchnomadagi maxsus ko'rsatma aslida hech qanday ma'noga ega emas.

Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklarini sudlar tomonidan samarali tarzda himoya qilinishini ta'minlashda, ishlarni ixtisoslashgan ma'muriy sudlar tomonidan to'g'ri va o'z vaqtida himoya qilinishini ta'minlashda qabul qilinajak Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks muhim o'rin tutadi. Ma'muriy odil sudlovni amalga oshirishning muhim kafolati sifatida mazkur Kodeksning qabul qilinishi fuqarolarning ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlari va qonuniy manfaatlarini sud tartibida himoya qilishning samarali tizimini yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali ishonchli himoya qilinishi ta'minlashga hamda davlat boshqaruvi organlarining fuqarolar va tashkilotlarga daxldor bo'lgan xatti-harakatlari (qarorlari)ning qonuniyligi ustidan sud nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ma'muriy tartib taomillar to'g'risida»gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. 2018 yil 25 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi PF-6034-sonli «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi Farmoni.
5. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. 2022 yil 28 yanvar kungi PF-60 sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni.
6. «Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-107 sonli Qarori. 2022 yil 29 yanvar.

## XALQ MAQOLLARINING TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

*Tursunova Dilafruz Abdullajon qizi*  
*Andijon viloyati Oltinkòl tumani*  
*40-umumta'lim maktabining*  
*ona tili va adabiyot fani o'qituvchi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xalq maqollarining ahamiyati tahlil qilindi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berish bilan birgalikda ularning ma'naviy salohiyatini ham shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri ekanligi haqida fikrlar berildi.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, maqollar, barkamol shaxs, ma'naviy ong, yuksak insoniy fazilatlar.

**Abstract.** This article analyzed the importance of folk proverbs. Opinions were given that in the educational process, along with imparting knowledge to students, forming their spiritual potential is one of the most important tasks.

**Key words:** Folk art, proverbs, perfect personality, spiritual consciousness, high human qualities.

**Абстракт.** В данной статье проанализировано значение народных пословиц. Высказаны мнения, что в образовательном процессе, наряду с передачей знаний студентам, одной из важнейших задач является формирование их духовного потенциала.

**Ключевые слова:** Народное творчество, пословицы, совершенная личность, духовное сознание, высокие человеческие качества.

Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur hazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Biz o'zaro muloqat jarayonida o'z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go'zal, jozibali va

ishonchli bo'lishida yordam beradi. Masalan farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo o'zingni tarbiya qil. Farzandingga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir".

Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Bizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodi o'z ichiga dostonlarni, afsonalarni, maqollar va matallarni oladi. O'zbek millatini ma'naviy qiyofasini, o'zligini ko'rsatib beradigan xalq og'zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o'rganish va o'rgatish yoshlarimiz ma'naviyatida o'z millatiga nisbatan hurmatni, qalbida faxr tushunchasini beradi. Xalqimiz turmush tarzi ifodalangan manbalardan biri sifatida xalq og'zaki ijodi, deb qarashimiz mumkin. Maqollar esa xalq og'zaki ijodining yirik namunasi. Maqollarni o'rganishimiz o'z tilimizga nisbatan hurmatni, uni yoshlarimiz ongiga singdirib ularda qadriyatlarimizga nisbatan faxr tuyg'usini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shu bilan birga maqollarimizni chet el maqollari bilan taqqoslash ularni o'rganish ham boshqa millatlarga nisbatan hurmatni va ularni dunyo qarashidan boxabar bo'lishimizga katta turtki bo'ladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o'rnini beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.

Xalq maqollari asrlar davomida sayqal topib, mumtoz qiyofa va mazmun kasb etgan, nutqda faol ishtirok etuvchi paremik birlik sifatida xalq qadriyatlari, urf-odat va an'analari, tarix va madaniyat, ta'lim va tarbiya, odob-axloq masalalari talqini va tavsifini, umuman, millat mentalitetini to'la namoyon etuvchi ko'p qirrali hodisadir. Xalq og'zaki ijodi tomonidan yaratilgan maqollarning mavzu doirasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Maqollar to'plamlarda yetmishdan ortiq mavzu guruhlariga bo'lingan.

Ularning ichida nutq madaniyati, muomala, muloqat odobi masalasiga oidlarining o'zi ichki tasniflashda oz so'zlash, tinglash, sukut saqlash, shirinso'zlik, to'g'ri so'zlash, mushohadakorlik, Vatan, kasb-hunar, farzand tarbiyasi va hokozo mavzularni o'z ichiga oladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maqollar xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'z bo'lgani uchun undan keng foydalaniladi. Xalqning ijtimoiy, tarixiy, madaniy, maishiy, hayotiy tajribasi umumlashgan holda beriladi. Milliy til tarkibida qoplashgan holda namoyon bo'lgani uchun maqol tarkibidagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirib, o'zgartirib bo'lmaydi va buning iloji ham yo'q. Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilmaxilligi, iboralarning turg'unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so'zlar borki, bu so'zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan. Masalan, tuz so'zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so'z to'g'ri, odobli; dala, tekislik ma'nolarni anglatgan va maqollardagina saqlanib qolgan : *Qiz saqlasang, tuz saqlab. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo'l.* Shuningdek, mehnat so'zining azob-uqubat, baxtsizlik ma'nosini ham faqat maqollarda yoki ayrim shevalardagina uchratish mumkin : *Mehnat ham egiz - egiz, Davlat ham egiz – egiz*

Maqol tarkibini o'rganar ekanmiz, ularda ko'proq moddiylikdan ko'ra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekanini ta'kidlash joiz. "*Kishi yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l*" maqolida ham shu ma'no anglashiladi. Bir xilgi toifa insonlar barcha muammolarini iqtisod ( pul ) bilan o'lchashadi. Ular uchun moddiylik va turmushning to'kin - sochinligi har qanday tushunchadan ustun turadi. Lekin Bobur yurtini tashlab, o'zga yurtda Vatanini eslab qo'msashi, azoblanib qiynalishidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikrning inson uchun naqadar ibratli ekaniga amin bo'lamiz, aniq tarzda berilganiga ishonch hosil qilamiz. Umuman, Vatan haqidagi xalq maqollarda qiyoslash, zidlash, o'xshatish, taqqoslash ma'nolari yetakchilik qiladi. Yuqorida berilgan maqolda ham Ona Vatan va o'zga yurt, shoh va gadolik motivlari o'zaro zidlanib taqqoslangan. Ma'lum darajada ushbu motivlar qiyoslangan. Ushbu maqol ruslarda " *Nachujoy strane i vesna nekrasna* " ( ma'nosi : o'zga yurtda bahor go'zal emas ) tarzida beriladi.

Chet va qo'shni davlat maqollarini tarjima qilayotganimizda ona tilimizdagi muqobil yoki unga yaqin variantlarini beriladi. Ruslar ushbu maqolida aynan Boburshohni nazarda tutmagan bo'lsa-da, butun insoniyatga daxldorligiga urg'u beradi. Inson o'zga yurtda qanchalik obro'- e'tibor topmasin, tunganmas boylikka ega bo'lmasin ona yurtini qo'msash, sog'inish tuyg'ularini "o'zga yurtda bahor go'zal emas" ligi bilan aniq, raso ochib bera olgan. O'zga yurtdagi bahorning go'zal bo'la olmasligi hatto shohlik darajasiga erishganida ham baribir ko'nglida kemtigi saqlanib qolishi bilan tenglashtiriladi. Ona yurtiday yashay olmasligi haqida fikr

yuritiladi. Xullas, xalq maqollari qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasin, tanlangan muammolar, ijtimoiy munosabatlar atroflicha o'rganiladi. Maqollar uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'pma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterli.

Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarga ega bo'lishi bilan diqqatga sazovordir. *"Yomon xotin olguncha, bo'ydoq yurgan yaxshiroq"*, *"Qizi borning nozi bor"*, *"Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda "kabi maqollarda o'z ma'no anglashilib turibdi."* *"Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi"*, *"O'tin ayirgan bolta maydonda qolar"*, *"Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi"*, *"Bukrini go'r to'g'irlar"* kabi maqollar bilan tanishganimizda ko'chma ma'no yashiringanini his qilamiz. Bir qarashda *"Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi"* maqoli o'z ma'nosida ham qo'llangandek tuyuladi. Ammo bu hikmatli so'zni hech kim o'z ma'nosida qo'llamaydi. Bir ishni yuzaga chiqishi uchun boshqa ishning ma'lum darajada unga sabab bo'lishi, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta'kidlash maqsadida bu maqolni esga olish odat tusiga aylangan. Xalqimiz xalq og'zaki ijodida munosib o'rin olgan ushbu maqolni ko'chma ma'noda tushunmasak, qanday maqsad nazarda tutilgani va asl ma'nosini tushunmay qolishimiz mumkin.

Maqollardagi bu va boshqa xususiyatlar yengil yumor, kuchli tasdiq, o'rinli kesatiq, xalqimiz tarixini mukammal ochib bera olgan haqiqatlar, bir ishni amalga oshirishdagi dalil va inkor ma'nolarini anglash uchun xizmat qiladi. Hajm jihatdan kichikligi, mazmun serma'noligi, mavzu jihatdan hayotiyliigi maqollarning asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib yashashini ta'minlagan omillardir. Maqollarning badiiy mukammalligi esa ularning hayotiyliigi, umrboqiyligini izohlaydi. Mazmundor va mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan paremalarda o'xshatish, taqqoslash, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching, antiteza kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi.

Maktab ta'lim-tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda unga qanday ta'lim berilganligiga, tarbiyachi hisoblanmish o'qituvchining o'z burch, vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Barkamol insonni, fidoyi shaxsni tarbiyalashga ham shu yerda zamin qo'yiladi. Shu nuqtai nazardan ta'limda o'qitiladigan xalq og'zaki ijodi asarlari o'quvchilarda turli insoniy fazilatlarni shakllantirishga, ularda ahloqiy sifatlarni tarkib topdirishda alohida o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijoding kichik janr bo'lgan maqol o'quvchilarning ma'nan sog'lom va har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlaydi, xalqimizning boy madaniy merosi va qadriyatlarini anglab yetishi, mustaqillik, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik xislatlari hamda dunyo haqidagi tushuncha va tasavvurlarini shakllanishiga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, ularning umr davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlaydi.

Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi.

Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Yer haydasang — kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda“, „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining“ kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari — ohangdosh tovushlar takrori bo'ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo'lgan ajoyib so'z ustalarining o'lmas satr va hikmatli so'zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning „Mahbub ulqulub“da aytganbir qancha hikmatli so'zlari shular jumlasidandir: „Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur“, „Tilga ixtiyorsiz — elgae 'tiborsiz“ va boshqalar.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug'atlar (Masalan: Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovning „Hikmatnoma“ (o'zbek maqollarining izohli lug'ati), Toshkent, 1990)dan uning ma'nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo'lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o'qituvchi „Maqollar to'plami“ va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo'lishi kerak.

Darsliklarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamog'chi bo'ladilar. Darslarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. Maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan: „Vatansiz bola-kuysiz bulbul“ maqolini ko'rib chiqsak. Ushbu maqolni matni ustida ishlaganda,

1. „Vatan“ so'zini yana qanday so'zlar bilan almashtirish mumkin?
2. Nima uchun Vatansiz insonni- kuysiz bulbulga o'xshatyapti?
3. Vatanimiz haqida nimalar bilasiz?

kabi savollar berish yo'li bilan o'quvchilaning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlanadi.

*Kitob-beminnat do'st* maqolining ma'nosini tushuntirishda o'quvchilarga, kitobni qanday paydo bo'lgani haqida qisqacha ma'lumot berib ketamiz. O'quvchilar! Kitob-noyob xazina hisoblanadi. Bilasizmi? Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. U davrlar kitoblar turli hil ko'rinishda bo'lgan. Odamlar qog'oz bo'lmagani uchun ma'lumotlarni tosh taxtachaga, sopol idishlarga yozishgan. Xitoyda dastlab kitobni qamishga o'xshagan bambuk o'simligiga yozishgan. Bosma kitoblar logann Gutenberg ixtiro qilgan kitob bosish uskunasi ishga tushgach, paydo bo'la boshlagan.

“O'quvchilar sizlarga qanday kitoblar yoqadi?”

“Nega kitob bizning do'stimiz deganda nima tushunasiz?”

“Ayting-chi, kitob o'qishning qanday foydasi bor?”

“O`quvchilar kitoblar qanday paydo bo`lganini bilasizmi?”  
Shu tariqa o`quvchilarni fikrlash doirasini kengaytirishimiz mumkin.  
Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o`rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o`qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so'zlarning ma`nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma`noli va ma`nodosh so'zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g'oya bilan aloqasini ochish.
6. Matn mazmuni va g'oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo'yicha guruhlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. T.Mirzayev O'zbek xalq maqollari - Toshkent, 2016. 7-b.
2. O'zbek xalq maqollari - 1988. 2 - jild.
3. <http://library.ziyonet.uz>.
4. Turg'unpo'latov Diyorbek Ro'zmamat o'g'li. (2021). O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI VA TURG'UNBOY G'OYIPOV. Образование и наука в XXI веке 2(15), (pp. 1688-1690)
5. Madayev O., Sobitova T. Xalq og`zaki poetik ijodi. –Toshkent: "Sharq" nashriyotmatbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2003.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. "Hikmatnoma" O'zbek maqollarining izohli lug'ati. –Toshkent: "O`qituvchi", 20005

MUNDARIJA

*B: Falsafa. Filologiya. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. San'atshunoslik. Sotsiologiya. Islomshunoslik. Iqtisod. Yuridik fanlari*

**Abdullayev U.U., Nurbayeva X.B.** O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati .....2

**Yarieva Z.Sh.** Ingliz tili o'rganuvchilarga lug'atni o'rgatishning samarali usuli ("ESA" metodi) .....6

**Тешаева Д.Р., Ибрагимова С.** Вопросы повышения свойств засолоустойчивости сортов озимой пшеницы в почвенно-климатических условиях Бухарской области .....8

**Samadova Z.N.** Xorijiy(ingliz) tilini o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish .....12

**Axmatxunova M., Shokirov A.** Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) yordamida dekserich suyuq ekstraktidagi rutin konsentratsiyasini tahlil qilish .....16

**Axmedova M.E., Abdullayev M.Q.** Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayorgarlikni tashkil etish va uni o'qitishda kredit tizimida nazariy bilimlarni oshiruvchi mustaqil ta'lim topshiriqlari tuzish usullari .....20

**Каюмов В.М.** Роль наблюдения в методологии исследований внеурочной деятельности .....27

**Sayfulloyeva N.G'.** Barkamol avlodni sog'lom qilib tarbiyalashda badiiy gimnastikaning o'rni .....31

**Axmatxunova M., Shokirov A.** Анализ концентрации рутина в жидком экстракте дексерич с использованием высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) 35

**Азизова Н.А., Ғозиева Г.А., Нормаматова М.Ш.** Асалари личинкаларининг она асалари етиштиришда аҳамияти.....40

**Сафарова З.Т.** Халқ ҳаракатли ўйинларини жисмоний тарбия дарсида қўллашнинг физиологик афзалликлари.....44

**Рахимова М.Ш.** Применение методов функциональной тренировки для повышения скоростно-силовой подготовленности каратистов .....47

**Abdullayev I.A., Sotvoldiyev A.A., Xodjimatova G.D.** Devor konstruksiyalarini issiqlikni himoya qilish xususiyatlarini kamaytiradigan omillar .....54

**Джабборкулова Д.С.** Современные интерактивные средства и методы в процессе обучения русскому языку как иностранному .....60

**Назирова У.** Меҳнат қонунчилигида кафолат: иш жараёнида ходим соғлиғига етказилган зарарларни қоплаш .....65

**Абдурахимов А.А.** Ўзбекистонда туризм соҳасининг ривожланиши (Тошкент вилояти мисолида).....67

**Umarova D.** O'zbek va Xitoy adabiyotlari rivojida adabiy aloqalarning o'rni .....74

**Qosimova X.F.** Махтумқули ижодида сабр-қаноат талқини .....81

**Амонов А.У., Шарипов Д.Н.** Интерактивные педагогические технологии улучшения усвоения биоинформатики.....85

**Орлова Т. А., Хван К.А.** Факторы, способствующие повышению самосовершенствованию педагога .....88

**Сотимов Д.Қ.** Ўзини ўзи банд қилувчи жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортишнинг АҚШ тажрибаси ва ундан солиқ сиёсатимизда фойдаланиш имкониятлари .....94

**Nurbayeva X.B., Sodiqova R.** Oilada bola tarbiyasi toifalari va oqibatlarini .....98

**Jumayev H.** Use of musical works in cultural events .....104

**Xidirov K.A.** Cholg'ularning paydo bo'lish tarixi hamda hozirgi kundagi o'rni va ahamiyati .....108

**Hamidov Sh.O'.** O'rta Osiyoda musiqa cholg'u asboblarining paydo bo'lishi .....111

**Toshpulatova Z.** Malay tilida o'zlashma so'zlarning ekstralingvistik va lisoniy omillar asosida vujudga kelishi .....116

---

<b>Choriyev B.B.</b> The role and importance of folklore music in children's education.....	122
<b>Xakimov O.B.</b> Ceremonial songs on the example of Surkhandarya and Kashkadarya regions .....	125
<b>Kholmatov Sh.Kh.</b> Fortepiano cholg'u asbobida tovushlar rang-barangligining muhim ahamiyati.....	128
<b>Худойбердиев Н.</b> Ёшларни маънавий тарбиясида бахши дostonчилик санъатининг тутган ўрни .....	131
<b>Xusanov S.N., Ibragimov I., Fayzullayev S.A.</b> Evolutionary algorithms in the context of controller synthesis for discrete control systems model predictive control algorithms.....	135
<b>Nazirova Z.M., Abdujabborov M.V.</b> IT loyihalari bilan ishlash asoslari .....	140
<b>Vapayev K.R.</b> 11-12 yoshli futbolchi darvozabonlarning 1x1 vaziyatdagi texnik tayyorgarligini mashg'ulot davomida rivojlantirish metodikasi.....	144
<b>Yusupov K.</b> Factors of influence of parliamentary control on society and state relations. ....	148
<b>Ergashev Y.D.</b> Ma'muriy sud ishlarini yuritishda vakillikning qonuniy vakolatlari.....	152
<b>Tursunova D.A.</b> Xalq maqollarining ta'lim tizimidagi ahamiyati .....	158